

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

Tojiboev Alimardon


“ABDURAUF FITRATNING MA’RIFIY QARASHLARI”

5111600 -“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari katta o‘qituvchi

Sh.Maxamadyunusov



Andijon – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
-------------	-----

I BOB. ABDURAUF FITRAT MA'RIFIY QARASHLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-MILLIY ASOSLARI.....7-37

1.1. Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, jadidchilik g'oyalari va ularning Fitrat dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri.....	7-19
--	------

1.2. Fitratning ma'rifatparvarligida qadriyatlarning tutgan o'rni va uning millatparvarlik, vatanparvarlik haqidagi goyalari.....	20-37
---	-------

II BOB. ABDURAUF FITRATNING MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA ULARNING AHAMIYATI.....38-57

2.1. Fitratning Turkiston maorifi va ma'rifatini rivojlantirish va millat ehtiyojiga xizmat qildirish borasidagi faoliyati.....	38-49
---	-------

2.2 Fitratning maktab va ta'lim mazmuni haqidagi g'oyalari.....	50-57
---	-------

XULOSA.....	58-60
-------------	-------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	61-65
---	-------

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: "Har qaysi millat birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir"¹ Shuning uchun istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq ma'naviyatimizni tiklash va yuksaltirishga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berib kelinmoqda.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham "milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual me'rosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish" ko'zda tutilgan².

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish hamda mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda o'tmish merosimiz va qadriyatlarimiz alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, vatani va xalqi ozodligi uchun kurashgan, millat ma'naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qilgan ilm va fan sohiblarining faoliyati har bir avlod uchun yo'lchi yulduzdir. Porloq kelajak uchun intilayotgan har bir xalq o'z tarixini e'zozlab, undaga boy, takrorlanmas manbalardan ijodiy foydalanishi lozim.

Xalq merosining ahamiyati va uni o'rganishga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ahamiyat berib, shunday degan edi: "Xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz kerak. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lishimiz kerak"³.

¹ Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., 1997. 13-b

²Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., 1997.

³Karimov I.A. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1994. 8-b

Fitratning ma'rifatchilik faoliyatida, jadidchilik harakatining ta'siri katta bo'ldi. Jadidlar ruslarni Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga aralashuvini to'xtatish, jamiyat taraqqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborish maksadida maorif, matbuot, din, san'at sohalarida islohotlar o'tkazishni taklif etishdi. "Ular axloq-odob, e'tiqod, adliya, sog'liqni saqlash sohalarini qayta ko'rib chiqish va mukammallashtirish, xotin-qizlar ahvolini, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini yaxshilash g'oyalarini o'rta tashladilar"⁴. Jadidlarniig dasturlarida yangicha g'oya, yangicha tafakkurga asoslangan ma'rifatchilik harakati birinchi o'rinda turardi.

Alloma Fitrat ham ma'rifatchilik yo'lidan borib, Turkiston maorifini yuksaltirish va uni millat ehtiyojiga xizmat qildirish uchun kurashadi. O'lkadagi mavjud eski maktab va madrasalarni, ulardagi o'qitish usullarini isloh qilishni talab qiladi. Jadid ziyolilari bilan birgalikda yangi usul maktablarni tashkil etishda, ularda ta'lim-tarbiya berishda ishtirok etadi. Adib yangi maktablar va boshqa ta'lim muassasalari uchun darslik va qo'llanmalar yozadi. U o'zbek tili qoidalarini ishlab chiqish va adabiyot tarixini yaratishga, Turkiston matbuoti, dramaturgiyasi, teatr va musiqa san'ati rivojiga munosib hissasini qo'shadi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yashab ijod etgan ba'zi bir jadid vakillarining pedagogik karashlari va ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari A.Fattaev, Z.Mirtursunov, A.Boboxonov, M.Maqsumov, B.Qosimov, U.Dolimovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Olimlarimizdan H.Boltaboev, N.Karimov, E.Karimov, B.Qosimov, O.SHarofiddinov, S.Erkinov, A.Aliev, SH.Turdiev, G.Rahimova, G'.Ganiev, N.Yo'ldoshev va boshqalarning Fitrat hayoti, ijodi, faoliyatiga oid qator

⁴ O'zbekiston xalqlari tarixi: 2 jild. Fan.-T: 1994 78-b

ilmiy, falsafiy maqola va risolalari e'lon qilingan.

Abdurauf Fitrat ijodining turli qirralari keng o'rganila boshlandi, lekin uning ta'lim-tarbiyaga oid ko'rsatmalari hali o'z echimini topgani yo'q. Biz ishda shu masalani hal etishga harakat kilamiz.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Abdurauf Fitratning ma'rifiy qarashlarini aniqlash, tahlil etish va ulardan ta'limi tizimida foydalanish yo'llarini ishlab chiqish. Fitrat yashab ijod etgan tarixiy sharoit va uning jadidchilik - ma'rifatchilik g'oyalari mustaqillik mafkurasi talablari asosida tahlil etish;

Fitratning ijtimoiy-sissiy, mafkuraviy qarashlari va jadidchilik bilan bog'liq holda o'rganish; Fitratning ma'rifiy qarashlari: aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya, vatanparvarlik, milliy g'urur haqidagi g'oyalariga xalq milliy merosi sifatida qaralsa, undan xalq ta'limi tizimida ijodiy va tizimli foydalanilsa Fitrat ma'rifiy g'oyalarining tadqiqi shu vaqtda ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi va u hozirgi zamon barkamol inson shaxsini tarbiyalash samaradorligini oshirishga munosib hissa bo'lib ko'shiladi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Abdurauf Fitratning ma'rifiy g'oyalari va ularning bugungi kun ijtimoiy hayotida ahamiyati tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Fitrat ma'rifiy g'oyalarining hozirgi ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tadbiiq etilayotganligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Fitratning ma'naviy merosi ilk bor mustaqil tadqiqot predmeti sifatida taxlil etildi, Bu esa jadidchilik davridagi ma'rifiy g'oyalar rivojini o'rganishga yangi bir sahifa bo'lib qo'shiladi;

- olimning maorifimiz yuksalishiga ko'shgan hissasi va ilg'or pedagogik g'oyalari aniqlandi, ular O'zbekiston mustaqilligi davrida qabul

qilingan qonun, dastur, konsepsiyalar asosida tahlil etildi; Fitratning ijodi va ma'rifiy g'oyalari ta'lim tizimida foydalanish yo'llari ko'rsatildi;

- o'zbek tili va adabiyoti, musiqa, tarix fanlaridan maxsus kurslar jarayonida Fitrat merosini o'rganish bo'yicha rejalar va test savollari ishlab chiqildi, tadqiqotning samaradorligi tekshirildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Abdurauf Fitratning ma'rifiy-pedagogik g'oyalari, ta'lim-tarbiya mazmuni, mohiyati, amalga oshirish yo'llari haqidagi ko'rsatmalari milliy pedagogika fani rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi. Tadqiqotdagi nazariy fan va xulosalar, ilmiy metodik tavsiyalar oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagogika fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mazkur tadqiqot natijalaridan olimlar, oliy o'quv yurti, o'rta umumta'lim maktabi o'qituvchilari, talabalar foydalanishlari mumkin. Tadqiqot materiallari asosida maxsus kurs, seminar, fakultativ mashg'ulotlar va turli tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi; "Kirish", 2 bob, to'rt paragraf, "Xulosa" va "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati"dan iborat. Ishning hajmi 65 sahifani tashkil etib, uni yozishda turli manbalardan foydalanildi.

I BOB. ABDURAUF FITRAT MA'RIFIY QARASHLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-MILLIY ASOSLARI

1.1. Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, jadidchilik g'oyalari va ularning Fitrat dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri.

O'tmish merosni o'rganish - tarix ne'matlarini kelajak sari ildam yo'l bosishi uchun yo'lchi yulduzdir. O'z tarixini asragan va o'tmishini chuqur bilgan xalq qudratli hisoblanadi. Ayniqsa, xalq ozodligi va yurt istiqloli uchun qurbon bo'lgan qahramonlar jasorati, millat ravnaqi yo'lida kurashgan ilm-fan sohiblarining faoliyati har bir avlod uchun tuganmas xazinadir. Mustaqil O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda **O'zbekiston Respublika birinchi** Prezidenti I.A.Karimov xalq qudrati aks ettirilgan tarixiy merosni o'rganishga alohida e'tibor berib, shunday degan edi: "Vatanimizning boy tarixi bilan tanishib chiqqach, uning butun ulug'vorligini, mahobatini ko'rasiz va tushunib olasiz"⁵.

Vatanimizning o'z millati va Vatani uchun kurbon bo'lgan qahramonlari qatorida jadid harakatining vakili Abdurauf Fitrat ham bo'lib, uning ijodiyoti o'zining naqadar boy va mazmundorligi bilan o'tmish tariximizni bezaydi.

Fitrat yashab o'tgan davr XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Xuddi shu davrda, ya'ni XIX asrning 60-90 yillari davomida Rossiya O'rta Osiyoni bosib olib, bu erda o'zining mustamlakachilik rejimini o'rnatgan edi. O'zbeklarning bir qismi Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarkibida qolib, qolganlar esa Rossiya imperiyasining mustamlaka o'lkasi bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Bu davrda Turkistonda yangi ishlab chiqarish elementlari paydo bo'lib,

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1994 15-b.

tovar-pul munosabatlari katta ahamiyat kasb eta boshladi. Markaziy Osiyoga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi boshlandi. Lekin Turkistonda kapitalizmning rivojlanishi chor hukumatining iqtisodiy siyosati tufayli majruh bir ko‘rinishda edi.

O‘zbekistonda sanoat yakka ustalarning mayda hunarmandchiligidan iborat edi. Lekin o‘lkaga Rossiyaning zamonaviy texnika bilan jihozlangan korxonalarida tayyorlangan mollarning keltirilishi bilan mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari bozori sina boshladi. 1871 yili Toshkentda 311 ta mustaqil ko‘nchilik korxonasi bo‘lsa, 1892 yilga kelib ulardan 66 tasi qoldi⁶.

Turkistonda ko‘plab paxtaga ishlov berish korxonalari ochiladi. Sanoat va ishchilar soni tez o‘sa boshlaydi.

Ko‘plab temir yo‘llar qurilib, temir yo‘l ishchilari soni ham ko‘paydi. Lekin ishchilarning ahvoli borgan sari og‘irlashib boradi. Ish kuni 17-18 soatga etadi. Ish haqi esa kam to‘lanadi. 1904 yili 15 yoshli bolaga kuniga 15-20 tiyin, o‘smirga 30-50 tiyin, katta yoshli kishiga 60 tiyindan 1 so‘mgacha, ayollarga 35-60 tiyin to‘langan⁷. Mahalliy ishchilarning ish haqi ruslarnikidan bir yarim-ikki barobar kam bo‘lgan.

Chor hukumati qishloq xo‘jaligiga ham bir qator o‘zgarishlar kiritdi. Qishloq xo‘jalik rayonlarini ixtisoslashtirish boshlandi. Qishloqda sinfni tabaqalanish chuqurlashib, yersiz xo‘jaliklar ko‘paya boradi.

Rossiya Turkistonni o‘zining paxta bazasiga aylantirish ishlarini boshlab yuboradi. O‘lkadagi banklarning ahamiyati osha boradi. Sudxo‘rlar paydo bo‘lib, butun dehqonchilik savdo-sudxo‘rlik sarmoyasining qo‘liga o‘tib qoladi. Dehqonlar sudxo‘rga qaram bo‘lib qola boshlaydilar. Natijada

⁶ O‘zbekiston xalqlari tarixi: 2 jild. Fan.-T: 1994 158-b

⁷ O‘zbekiston xalqlari tarixi: 2 jild. Fan.-T: 1994 153-b

yersiz qolgan dehqonlar soni orta boradi.

Ayniqsa, Buxoro amirligida xalqning ahvoli juda og'ir edi. Ular ikki tomonlama zulm ostida eziladilar. Dehqonlar xilma-xil soliq to'lashta majbur edilar. Ba'zi viloyatlarda hatto, o'zi etishtirgan hosilning uchdan bir qismini soliqlar uchun to'laganlar. Dehqonlardan qarzlari evaziga yerini, bor narsalarini tortib olganlar.

1895 yili Buxoroda "Rossiya imperiyasining siyosiy agentligi" ta'sis etilib, amirlik tashqi siyosat va savdoda Rossiyaga qaram bo'lib qolgan edi.

Shaharda ishchilarning, qishloqda dehqonlarning, umuman barcha mehnatkash xalqning axvoli kundan-kun og'irlashib boradi.

O'lkadagi bunday sharoit, xalqning og'ir ahvoli vatanparvar Abdurauf Fitratni befarq qoldirmadi. U ham ilg'or ziyolilar qatori ma'rifatchilik va islohotchilik yo'lidan bordi. Uning dunyoqarashi jadidchilik g'oyalari asosida shakllandi.

Turg'unlik yillari davomida jadid harakatiga turlicha qarashlar bo'lib, ko'pincha xalq bilan hamnafas bo'lgan jadidizmni reaksiya g'oyaviy harakat sifatida qoralanib, unga bir tomonlama baho berildi. Jadid harakatining rahbarlarini "xalq dushmani", "millatchi" sifatida ayblab, ularni hayot yo'lidan mahrum etildi.

Tarix fanlari doktori, professor Homid Ziyaev hamda Ozarbayjon fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Aziz Mirmuhamedovlar jadidchilik muammosining Ozarbayjon bilan ham aloqadorligi mavjudligini ta'kidladilar. Bu harakatning Ozarbayjon, Turkiyadagi rivojida A.Fitratning o'rnini alohida tilga olib o'tdilar.

Jadidlar xalqqa madaniyat va ma'rifat tarqatish yo'lini maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usul maktablari ochish, tijoratni keng yo'lga qo'yish, dunyoviy madaniyatdan bahramand bo'lish, gazeta va jurnallar

chiqarish, teatr, kutubxonalar barpo etishdan iborat deb biladilar.

Ular "Taraqqiy" (1906), "Samarqand" (1913-1915), "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Oyna" (1913-1915), "Buxoroi Sharif" (1912-1913), "Umid" (1910-1914), "Sadoyi Farg'ona" (1914-1915), "Turon" (1912-1913) kabi matbuot organlarini tashkil qiladilar.

Jadidlar yangi usul maktablarida ilmiy bilimlar bilan bir qatorda din va islomning o'qitilishi to'g'risida ham alohida gamxo'rlik qiladilar. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy va adabiy faoliyatida ham dunyoviy va diniy masalalar uyg'unlashib ketadi. Uning ommabop asarlarida ham ma'rifatparvarlik va shariat ikkalasi birlikni tashkil etadi.

Xukumat jadidlarga qarshi kurash yo'lida ba'zi mahalliy boy, ulamo, mullalarni ham o'ziga sherik qilib olib, ular orqali jadidlarga zarba berishga intildi. Jadidlarga qarshi kurash borgan sari kuchayib bordi, lekin jadidlar har qanday sharoitda ham o'z faoliyatlarini to'xtatmadilar.

Chor hukumati musulmonlar maorifining asosini tashkil etishi lozim bo'lgan birinchi va asosiy prinsip - uni ruslashtirish, ikkinchi bosh prinsip esa diniy jihatlarni buzish bo'lishi lozimligini ta'kidlar edi. Inqilobdan keyin ham bu qarashlar saqlanib qoldi, teng huquqlilik, milliy erkinlik masalalarida ham jiddiy o'zgarish bo'lmadi. Turkiston Muxtor jumhuriyati rahbariyatida ham deyarli mahalliy millat vakillaridan yoq edi. Shu kabi sabablar jadidlarni o'z millatining huquqi, kelajagi va ozodligi uchun kurashni davom etgarishga majbur etdi.

Buyuk adib Abdurauf Fitratning ma'rifiy qarashlari shakllanishiga ham o'lkadaga sharoit va jadidchilik katta ta'sir ko'rsatdi. Uning butun ijodi, hayoti va faoliyati jadidchilik bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886 yili amirlikning poytaxti Buxoro shahrida tug'iladi: "Fitrat" Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu

soʻz, tugma isteʼdod degan maʼnoni anglatadi. Uning otasi Abdurahimboy oʻzbek, onasi Bibijon tojik edi. Fitratning otasi dindor, oʻqimishli shaxs boʻlib, olam kezish, tijoratni yaxshi koʻrgan, savdogarchilik bilan shugullangan. U kasbi yuzasidan oilasini tez-tez tashlab ketar, hatto 1904 yildan 15 yil muddatga Qashqarga oʻtib ketadi. Fitratning onasi Bibijon nozik taʼb, savodli ayol boʻlib, farzandlari tarbiyasi bilan asosan shu kishi shugullangan. Oilada Abduraufdan tashkari yana ikki farzand - ukasi Abduraxmon va singlisi Mahbuba boʻlgan. Onasi bolalarining savodli, bilimdon kishilar boʻlib etishishlari uchun harakat qiladi.

Abdurauf dastlab maktabda, soʻngra Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil oladi. U arab, fors-tojik, turk adabiyotlarini, falsafani, Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini chuqur oʻrganadi.

XX asr boshlarida butun Sarqda boʻlgani kabi Buxoroda ham ijtimoiy fikrda jiddiy uygonish boshlanib, jadidchilik harakati keng yoyiladi. Buxoro jadiddarining oʻziga xos tomonlari bor edi. Fayzullo Xoʻjaev Turkiston jadidlari bilan Buxoro jadidlarini farqlamoq kerakligini uqtirib oʻtgan edi: "Bu farq rus Turkistoni bilan yarim mustaqil Buxoroda vujudga kelgan xoʻjalik munosabatlar oʻrtasidagi farqdan kelib chiqadi... - Turkiston jadidlari oshkora ish olib bordilar. Amir istibdodining ogʻirligi Buxoro jadidlarini maxfiy jamiyat tuzishga majbur qildi"⁸.

Buxoroda jadidpar "yosh buxoroliklar" nomi bilan ish olib bordi. "Yosh buxoroliklar" harakati yangi ijtimoiy-siyosiy Oʻrta Osiyoda, Buxoro amirligida XX asr boshlaridagi iqqisodiy oʻzgarishlar, tarixiy va siyosiy voqealar, 1905-1907 yildagi rus inqilobi, Turkiya, Eron, Xindistondagi demokratik harakatlar taʼsirida paydo boʻlgan jadidizmning soʻl qanoti

⁸Choʻlpon Abdulhamid Sulaymon. Istiqlol uchun kurash. Sovet Oʻzbekistoni.-T: 1990. 98-b

sifatida shakllangan edi. Bunga turli tabaqa vakillari birlashgan edi. Abdurauf Fitrat mana shu harakatning rahbarlaridan biri edi. Yosh buxoroliklar o'z faoliyatlarini (birinchi yashirin jamiyat Buxoroda 1908 yili tuzilgan) yangi usul maktablar ochish, ularda bolalarni o'qitishdan boshlaydilar. Ular ruhoniylarning xohinligi va mutaassibligiga qarshi qaratilgan tashviqot ishlari olib borar, amir amaldorlarining zo'ravonligi, zulmlarini fosh etar, bosh-qarish va soliq to'lashni tartibga solish, xalqqa zulm o'tkazishni chegaralash, mamlakat xo'jalik hayotining me'yorida davom etishi uchun zarur bo'lgan birdan-bir huquqi kafolatlarni joriy etishni, senzura zulmini yumshatishni talab qilar edilar.

Yosh buxoroliklar taraqqiyot istiqboli - sanoatni, savdoni, qishloq xo'jaligini, madaniyatni rivojlantirish bipan bog'liq bo'lib, savodsizlik bu yo'lda asosiy to'siq deb bildilar. Ular xalqni ma'rifatli qilish, fanni rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratish, bu bilan taraqqiyotga yo'l ochish kerak, deb hisobladilar. Dastlab bu ishni adolatli amir va dono vazir hal etishi mumkin deb o'ylaydilar. Lekin jadidlarning ta'limi qayta qurish goyalariga Buxoro hukmdorlari qarshi chiqadilar.

Jadidlar Orenburg, Qozon, Ufa, Istambul kabi musunmon madaniyati markazlarining bilim yurtlari orqali kadrlar tayyorlash ishiga alohida e'tibor beradilar. Shu maqsadda 1909 yil 18 iyunda Buxoro yoshlaridan Hoji Rafiy, Mirzo Abdulvohid, Munziy, Jamid, Xo'ja Mehriy, Ahmadjon Mahdum, Abdurauf Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja, Sadr Amir o'g'li va boshqalar "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") nomli xayriya jamiyati tuzadilar⁹. Sayniyning yozishicha, "...Jamiyatning birinchi maqsadi Istambulga o'quvchilar yubormoq bo'lib, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'gli (1879-1968), Ato Xo'ja (1894-1938), Abdurauf Fitrat, Muqimbeklar "Jamiyati xayriya"ning

⁹ Tursunov I. istiqloлга intilgan qalblar nidosi. –T: O'qituvchi. 1993. 48-b

ko'magida 1909 yili Turkiyaga o'qishga ketadilar. Bu jamiyat keyin ham talabalarni xorijga o'qishga yuborishga harakat qiladi. Ahmad Zaki Validi To'g'onning yozishicha, Istambulda 1911 yili 15 nafar, 1912 yili 30 nafar turkistonlik talaba tahsil olgan¹⁰.

Fitrat, Muqimbek, Sodiq Ashurzoda kabi talabalar tashabbusi bilan Istambulda ham "Buxoro ta'limi umumiy maorif jamiyati" nomli rasmiy jamiyat tuzilib, uning maqsadi Buxoro va Turkiston maorifi rivojlanishiga yordam ko'rsatish edi. Istambuldagi barcha turkistonlik talabalar bu jamiyatga a'zo bo'lganlar.

Fitrat 4 yil Istambulda o'qiydi. Bu erdagi ham, turk ma'rifatparvarlari, adib va shoirlari ijodi bilan tanishish, evropacha falsafa va ijtimoiy ta'limotlarni o'rganish uning qarashlarida keskin burilish yasaydi. Fitrat bu erda turk inqilobchi harakati ishlariga ham aralashadi. I.Gaspirali ta'limotlari bilan yaqindan tanishadi va uning "Dorulrohat musulmonlari" asarini fors tiliga tarjima qiladi.

Endi Fitrat Buxoro va Turkiston hayotidagi qoloqliklarni, bid'at va xurofotni aniqroq ko'radi, jamiyat rivojiga to'siq bo'lib yotgan kuchlar haqida teranroq o'ylay boshlaydi. Uning qarashlari keskinlashishiga Eron va Turkiya inqilobchilarining qarashlari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fitratning istiqloq, tenglik va hurriyat haqidagi g'oyalari marksistik g'oyalardan emas, balki musulmon Sharqidagi milliy ozodlik harakatlari va uning bosh xabarchisi "Tarjimon"ni o'qish natijasida paydo bo'lgan edi.

"Tarjimon"ning 1909 yil 27-sonida "Buxoroni qayon etaklamodamiz" nomi bilan bosh maqola berilib, u asosan yoshlarga qaratilgan va "usuli jadid"ning o'rnak bo'larli tomonlari yoritilgan edi. Ayniqsa, I.Gaspirali tomonidan ilgari surilgan "Til va istiqloq uchun birlashingiz!" shiori

¹⁰ Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. Bugungi tuk eli.Turkiston va yangi tarixi. Istanbul. 1981. 351-b

Rossiyanı qurqitib yuborgan, undan ta'lim olgan Buxoro jadidlari ham endilikda istiqloq g'oyalari bilan qurollanib, o'z vatanini chorizm zulmidan ozod qilishni o'ylay boshlagan edilar.

Fitratning ijodiy faoliyati ham Turkiyada boshlanadi. Izlanishlar adibni islohotchilik yo'liga olib keladi - u din bilan ilmni qo'shishga intiladi va ijtimoiy turmushni yaxshilash g'oyalarini ilgari suradi. Uning jamiyatni isloh qilish haqidagi goyalari Turkiyada fors tilida yozilgan dastlabki asarlari - "Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masala ham usuli jadid xususida qilgan munozara" (1909)¹¹ si va "Hind sayyohi qissasi"da (1911)¹² ifodalangan.

"Munozara"da Buxoro amirligidagi o'quv-o'qituv ishlarining ahvoli yoritilib, maktab va o'qitish usullarini tubdan o'zgartirish tadbirlari keltiriladi. Yapon olimi Xisao Kumapu "Fitratning "Munozara"si xususida qaydlar"¹³ tadqiqotida "Munozara"ni fors, o'zbek, rus tilidagi nusxalarini, tarjimalarini o'rganib, asarni chuqur tahlil qiladi. Asar o'z qamrovi jihatidan siyosat, maorif, san'at, tarix, ilohiyot kabi 20 dan ortiq jabhalarni o'zida birlashtirib, XX asr boshlaridagi Buxoro va Turkiston hayotini o'rganishda qimmatli manba ekanligini ta'kidlaydi.

"Munozara" sodda va ravon tilda, xalqning ruhiyatini hisobga olgan holda yozilganligi uchun xalqda yaxshi taassurot qoldiradi. Asar yashirin yo'llar bilan Buxoroga yuboriladi va mamlakatning turli erlariga tarqatiladi. 1911 yili Hoji Mo'in Samarqandiy uni o'zbek tiliga tarjima qiladi va "Turkiston viloyatining gazetisi" saxifalarida shu yili bosilib chiqadi. 1913 yilda asar Mahmudxo'ja Behbudiy so'z boshisi bilan alohida kitob holida nashr qilinadi. S.Ayniy asarning ahamiyatini ko'rsatib yozadi: "Munozara"

¹¹ Fitrat A. Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning bir necha masalalari ham usuli jadidi xususida qilg'on munozarasi.-T: Turkiston kutubxonasi. 1913. 134-b

¹² Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. // Sharq yulduzi. 1991.№8 39-b

¹³ Karimov E. Fitrat tug'ma iste'dod degani // Buxoro xaqiqati. 1990 24-fevral

davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli samarali ta'sir ko'rsatdi.

Fitratning yana bir mashhur asari "Hind sayyohi qissasi"ni samarqandlik mufti Mahmudxo'ja 1913 yili rus tiliga tarjima qiladi. Asarda adib ma'lum darajada Buxoro amirligiga nisbatan o'z e'tiroznomasini bayon etadi. U "Munozara"dagi islohot g'oyalaridan voz kechmaydi, biroq Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati, yer osti boyliklaridan xalq manfaati yo'lida foydalanmas; o'lkaning ma'naviy va moddiy boyliklari haqida kayg'urib yanada yuksaklikka ko'tariladi.

1910 yili Fitratning "Sayxa" she'rlar to'plami ham Istambulda maydonga kelib, yashirin yo'llar bilan Turkistonga keltirib tarkatiladi. Bu she'rlar to'plami hatto Turkiya, Germaniya, Rossiyaning markaziy shaharlariga ham tezda tarqalib ketadi, ko'plab tallarga tarjima kilinadi. F.Xo'jaev bu asarning ahamiyatini ko'rsatab deydi: "Vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan "Sayxa"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta sheriy shaklda ifodalab beriladi"¹⁴.

Fitrat o'zining asarlarida mavjud tuzumni qattiq tanqid qiladi, uning kamchiliklarini ochib, amirlikning chirik sistemasini fosh qiladi. Jadidlarning mustaqillik uchun kurashdan iborat bo'lgan asosiy maqsadini ochiq bayon etadi. Shuning uchun adib asarlarini o'qigan kishilarni amir ma'murlari va chor hukumati ta'qib ostiga ola boshlaydilar. Shunga qaramasdan bu asarlar jamiyatning barcha tabaqalari orasida keng tarqalib, katga qiziqish bilan o'qiladi.

Fitrat 1913 yili 4 yillik o'qishdan so'ng Buxoroga ilg'or qarashlar bilan

¹⁴ Xo'jayev F. Buxorodagi revolyutsiya va O'zbekistonning milliy chegaralanishiga doir // Tanlangan asarlar. 3 tom. - T: 1976. 98-b

qaytib keladi. U endi faqat ma'rifat va madaniyat tarqatish g'oyasi bilan cheklanib qola olmasdi. Uning va jadidlarning harakatida siyosiy ko'tarilish faollashadi.

Jadidlar soliqdarni kamaytirish, xalqning og'ir ahvolini yaxshilash uchun kurash boshlaydilar. Jadidlarning siyosiy haoliyati kuchayishi bilan ular ustidan rus ayg'oqchilarining ta'qibi ham ortib bordi. Turkiyadan qaytgan jadidlar maktablar bilan boglanib, maktablar ishini yaxshilash choralarini ko'ra boshlaydilar. Chor hukumati esa bundan tahlikaga tushib, yangi maktablarga qarshi harakat boshlaydi.

Fitrat yosh buxoroliklarga rahbarlik qilish bilan birga o'zining ijodiy faoliyatini ham davom ettiradi. 1913 yili "Rahbari najot", 1916 yili "Oila" nomli falsafiy asarini yozadi. 1917 yili "O'quv" kitobi nashr etiladi.

Fitrat birinchi jahon urushi va fevral inqilobi arafasida ham Buxoroda chor ma'murlari va amir amaldorlarining taraqqiyparvar ziyolilarga ta'qibi kuchaygan yillarda ham ta'lim-tarbiya berish, ma'rifatni targ'ib qilishdan to'xtamaydi.

"Yosh buxoroliklar" siyosiy talablar bilan chiqa boshladilar. Ularning siyosiy dasturi quyidagicha edi: amir va beklarning qoshida vakolatli organ barpo etish; ma'muriyatni yaxshilash va uning ustidan xalq vakillari nazoratini o'rnatish; shariatda aytilmagan soliqlarni bekor qilish; xalqqa matbuot va maktab erkinligini berish; reaksiyon ba'zi amaldorlarni ishdan olish¹⁵.

Amir oxiri islohot o'tkazishga rozilik berib, 1917 yil 7 aprelda islohot bayonnomasi e'lon qilinadi. Shu munosabat bilan yosh buxoroliklar tinch namoyish o'tkazmoqchi bo'ladilar, lekin amir qora guruhchilarni ishga solib,

¹⁵ Tursunov I. istiqlolga intilgan qalblar nidosi. –T: O'qituvchi. 1993. 7-b

yosh buxoroliklardan shavqatsiz o'ch oladi. Ko'plab jadidlar o'ldiriladi. F.Xo'jaev, A.Fitrat va boshqa jadid etakchilari zo'rg'a qochib quguladilar.

Jadidlar tinch yo'l bilan islohotlarga erishib bo'lmashligini tushunadilar. Jadidlarning so'l qanoti A.Fitrat, M.Saidjonovlar rahbarligida qurolli qo'zg'olonga tayyorlanmoqchi bo'ladilar.

1918 yili yanvarda yosh buxoroliklar Fitrat tuzgan "Yosh buxoroliklar" komitetining Buxoroda o'tkazadigan islohoti loyihasini tasdiqlaydilar. Bunda ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohadagi asosiy talablari ta'riflab beriladi. Ularning harakat dasturida qishloq xo'jaligi va sanoat sohasida, hokimiyatni boshqarish, sud hokimiyati to'g'risidagi qarashlari bayon etilgan edi.

Yosh buxoroliklar bu tadbirlarni amalga oshirish uchun sovet Turkistonining yordamig'a tayanmoqchi bo'ladilar. 1918 yil martda ularning iltimosiga ko'ra Turkiston XKK raisi F.Kolesov rahbarligida Buxoroga qo'shin keladi. Lekin yosh buxoroliklarning bu hamkorlikdagi qo'ztoloni ham muvoffaqiyatsizlikka uchraydi. Yosh buxoroliklardan o'ch olinadi, ulardan 1500 dan ortiq kishi qatl etiladi, omon qolgan 150-200 yosh buxoroliklar Sovet Turkistonidan Samarqand va Toshkentdan panohtopadilar¹⁶.

Fitrat bu voqealardan so'ng Toshkentga boradi, u erda yangi o'zbek maorifi va madaniyati asoslarini yaratishga kirishadi.

1920 yili Buxoro Xalq Jumhuriyati tashkil etilgandan so'ng, Tashqi ishlar vaziri, Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Xalq Noziriga Sho'rosi raisining o'rinbosari, Buxoro Xalq Maorif noziri (1921-1925) bo'lib ishlaydi. Shu paytda yana Buxoro jumhuriyatinnng Nozirlar Kengashi huzuridagi plan va smeta tashkiliy hay'ati raisi, Buxoro Jumxuriyati xalq xo'jaligi kengashi

¹⁶ Qosimov B. Abdurauf Fitrat xalq farzandi.// Saodat.1998/ №5 15-b

raisi lavozimlarida ishlaydi. Ayni paytda Buxoro Jumhuriyati xalq xo'jaligi Oliy Kengash raisining muovini sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

Fitrat 1923-1924 yillarda Moskva ijod qiladi. 1924 yili Leningrad Davlat dorilfununi adibga o'zbek va tojik adabiyoti klassik namoyandalari to'g'risidagi tadqiqotlari uchun professorlik unvonini beradi.

1924 yildan 1935 yilgacha Fitrat turli madaniy oqartuv, maorif va ilmiy tadqiqot institutlarida ishlaydi. Fitratning ijodii va ijtimoiy faoliyatini 3 davrga bo'lish mumkinligi haqidagi N.Karimovning fikriga qo'shilgan holda adibning ijodini shu uch davr ichida ko'rib chiqish mumkin:

Birinchi davr. 1908 - 1918 yillar bo'lib, bu davrda yosh buxoroliklar harakatining g'oyaviy dasturi bo'lib xizmat qilgan "Munozara", "Hind sayyohi qissasi", "Oila", "Rahbari najot" asarlarini yaratib, jadid adabiyotining ko'zga ko'ringan arboblardan biriga aylanadi.

Fitrat ana shu dastlabki asarlari bilan o'zi yashab turgan feodal jamiyatining g'oyaviy asoslarini larzaga keltiradi. Asarlarining asosiy mavzunini vatanparvarlik tashkil qiladi. Vatan uchun najot yo'lini ma'rifatda deb bilib, xalqqa madaniyat va ma'rifat berish uchun kurashadi.

Ikkinchi davr: 1918 - 1924 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Fitratning "Uchqun" she'rlar to'plami, "Qiyomat" hikoyasi, "O'g'uz-xon", qator publitsistik asarlari, "Imlo masalalari" maydonga keladi. Bu davrda o'nga yaqin dramatik asarlar yozib, bularda o'zbek va tojik xalqlarining qahramonlik an'analari, chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, adolatga tashnaligini tasvirlaydi.

Uchinchi davr: 1925-1930 yillarni o'z ichiga oladi. N.Karimov ta'biricha, u bu davrlarda "hamma sohalarda - ijtimoiy, siyosiy va adabiy qarashlarida o'ziga xos etuklik darajasiga ko'tarilgan edi"¹⁷.

¹⁷ Aliyev A. Sening nurli ko'zlaringda baxt o'qidim.// O'zbekiston ovozi. 1992 yil 9-yanvar

Panturkistlik tamgasi Markaziy Osiyo xalqlarining bevosita madaniy yaqinlashuvini targib qilgan faollarni ijodkorlar safidan yulib oldi. Panturkizmda ayblanish tahlikasi umumiy merosning bir qismidan voz kechishga ham olib keldi.

1937 yilga kelib, F.Xo‘jaev, A.Qodiriy, U.Nosir, Cho‘lpon, Elbek kabilar bilan birga Fitrat ham Stalin qirg‘inining qurboni bo‘ldi.

Fitrat 1937 yilning 23 aprelidan 24 apreliga o‘tar kechasi hibsga olinadi. “Xalq dushmani”, “millatchi”, “panturkist” kabi ayblar qo‘yilib, sud A.Fitratni 1938 yil 4 oktyabrda otishga hukm qiladi. Hukm ijro etiladi.

1.2. Fitratning ma'rifatparvarligida qadriyatlarning tutgan o'rni va uning millatparvarlik, vatanparvarlik haqidagi goyalari.

Fitrat ijodida milliy qadriyatlarni o'rganishga oid qarashlari va millat, vatanparvarlik haqidagi goyalari quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

1. Millatning o'tmish madaniy, ilmiy-adabiy va diniy merosini e'zozlash, uni chuqur o'rganish va targ'ib qilish:

- a) millat urf-odatlarini, xalq ogzaki ijodini o'rganish, undan foydalanish;
- b) o'tmish mutafakkirlar g'oyalariga amal qilish;
- v) Islom dinini o'rganib, o'z ta'limotida unga suyanish;
- g) musiqa va dramaturgiyaga oid meroslarni o'rganish;
- d) adabiy merosni o'rganish, targib etish.

2. O'z taqdirini millat taqdiri bilan bog'lash, uning zulimlariga nafrat.

3. Xalqparvarlik va insonparvarlikni targ'ib etish.

4. Vatan dong'ini olamga yoygan qahramonlarni ulug'lash, ular bilan faxrlanish.

5. Vatan qayg'usi va quvonchini his etib yashash.

6. Vatanni ardoqlash, uning uchun kurashga doimo shay turish. Vatan g'oyasini avaylash bu ajdodlar xotirasini asrash,

ulardan meros qolgan madaniyatni, ilmni o'rganishdan iborat deb bilgan Fitrat o'z ijodiyotining har bir yo'nalishini o'tmish merosimiz bilan bog'laydi.

Fitratning ta'biricha Vatan - bu millatning rang-barang madaniyati, ilmiy fani, tili, dini, fe'l-atvori, urf-odat va an'analaridir.

Fitrat ijodiyotining ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda va ijodiyotidagi uzviy hamkorlikni yaratishda Ismoilbek Gaspirali, Sadridin Ayniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniylarning xizmatlari kattadir.

Fitrat xalq og'zaki ijodiyoti va millatning urf marosimlarini chuqur

o'rganadi. O'z tahlillari asosida adib bularning aqliy va axloqiy tarbiya berishdagi ahamiyatini juda yaxshi tushunib etadi. Shuning uchun Fitrat barkamol insonni aqliy va axloqiy rivojlanishiga doir g'oyalarini yaratishda urf-odatlar va xalq og'zaki ijodiyoti, xalq kitob va pandnomalaridan foydalanadi.

Fitrat el adabiyotini ashula, ertak, maqol, topishmoq, lapar, doston kabi turlarga ajratadi va ularni tahlil qiladi. Adib o'zining asar, qo'llanma va darsliklarida ham insonparvarlik, vatanparvarlik va boshqa yeksak axloqiy sifatlar aks etirilgan xalq og'zaki ijodi materiallaridan misollar keltiradi.

Adib turli milliy bayramlar va hayitlarning tarbiyaviy ahamiyatiga ham yuksak baho beradi va shunday yozadi: "Bunday bayram va to'ylar foydali bo'lib hisoblanadi. Avvalo necha nafar kishilar bir joyga yig'ilib, taom eydilar va suhbat qiladilar. Shu bahona bilan ular o'rtasida do'stlik rishtalari mustahkamroq bo'ladi. So'ng bu tantanalarda mamlakat va millat ehtiyojlari haqida foydali suhbatlar quradilar. Shuning uchun din to'ylarni nan etmaydi"¹⁸.

Fitrat millatimizga xos bo'lgan yaxshi urf-odatlar va qadriyatlarni ulug'lab, o'z asarlarini ham xalq ruxiyatini hisobga olgan holda yaratadi.

Alloma Fitrat o'zining ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borishni targib qilish, aqliy tarbiya berish, komil inson tarbiyalashda ilm-fan, bilim o'rganishning ahamiyatini ko'rsatish, fanlar tasnifini yaratish, tabiiy fanlar va til ta'limining muhimligini asoslash kabi goyalari yaratishda mutafakkirlardan Forobiy, Beruniy, Ibn Sinodan ko'p narsalarni o'rganadi. Ayniqsa, u jismoniy tarbiya haqidagi ta'limotida, tabobat fanlari tizimini yaratishda Ibn Sinoga tayanadi.

Adib Fitrat Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy,

¹⁸ Fitrat A. Raxbari najot. Petrograd. 1915. 204-b

Firdavsiy, Yassaviy, Bedil, Umar Hayyomlar ijodiga ixlos bilan qarab, ularni chuqur o'rganadi, Amir Temurni millatning g'ururi deb biladi.

Adib Navoiy va Boburning musiqaga munosabatini o'rgandi. Ularning turk musiqasiga bergan baholariga amal qilgan hodda musiqashunoslik sohasidagi faoliyatini davom ettirdi.

U musiqani ham millatning muhim qadriyatlaridan biri hisoblab, uning rivojlanishi uchun o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Fitrat ijodiyotida dramaturgiya ham alohida o'rin egallaydi. Dramaturgiya sohasidagi ijodida u Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Abdullo Badriyning "Axmoq", kabi dramalaridan ma'naviy o'rnak oldi.

Fitrat o'zining turli mavzularda yaratgan o'ndan ortiq dramalarida asosan, xalq o'tmishi va tarixini, halqning turli tomonlarini yoritib berdi. Adibning dramalarida ham millat va vatanni ulug'lash, ularning mustaqilligi bosh g'oya bo'lib qoldi. Ularda insonparvarlik va vatanparvarlik ulug'lanadi.

Fitrat o'z ijodida o'tmish madaniy merosidan foydalanish uchun butun hayoti davomida shu merosni chuqur o'rganishga harakat qiladi. Bunga uning "Chig'atoy gurgungi" jamiyatidagi faoliyati ham misol bo'la oladi. Bu jamiyat 1918 yilda tashkil topib, o'z oldiga o'zbek klassik adabiyoti va xalq ogzaki ijodiyoti namunalarini (ertaklar, maqollar, laparlar va boshqalar) to'plash, o'rganishadi. Uning bu ta'limoti asosida shaxs, inson masalasi turadi. Inson va insonlar orqali millatga, millat taraqqiyotiga boriladi.

Alloma o'zining millat va vatanparvarlik haqidagi g'oyalarini ham shu meroslarni o'rganish asosida yaratdi.

Fitrat o'z ijodiyotida Islom dini ta'limotiga suyanadi. Uning ma'rifiy va pedagogik qarashlari shakllanishida islom dini, Qur'on va hadislarga bo'lgan e'tiqodi ham muhim ahamiyat kasb etdi. U har bir masalani din va shariat

qoidalarini asosida o'rganishni ma'qullaydi.

Adib o'zining "Rahbari najot" asarida yoritib bergan ma'naviy, oilaviy, insoniy majburiyatlarni diniy ta'limotdan oladi va o'zi anglagan g'oyalaridan keltirib, kishilarning ma'naviy va axloqiy turmushlariga tadbiq etadi.

Fitrat ijodiyotida o'zbek-turk musiqasi, uning go'zallik san'ati ekanligini tarannum etish ham alohida o'rin tutadi. U musiqa tarixini o'rganishni O'zbekistonda birinchilardan bo'lib boshladi.

Fitrat til qoidalarini tuzishda tatarcha yoki usmonlichadan emas, balki eski adabiyotimizdan foydalanish, buning uchun ulug' adiblarimiz asarlarini xalq adabiyoti va so'zlarini to'plamoq kerak deb biladi. Shuning uchun bu jamiyat o'z faoliyatida adabiy merosni va xalq og'zaki ijodini o'rganishga katga e'tibor beradi.

Fitrat o'tmish madaniyati, san'ata, adabiyotini o'rganish hozirgi kun talabi deb hisoblaydi. Azizim, O'rta Osiyoning olamga mashhur bir madaniyati bo'lgan, bu madaniyatning turkiy asarlari qolgan. Bu asarlarning hammasiga birdan "axlatlar" deyish sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh bo'lsa kerak. Siz Samarqandning Registoniga borib, eski "axlatlar"dan sanaganingiz madrasalarga diqqat qiling, qarangchi: shularning yiqilayozgak bitta minorasini saqlamoq uchun proletar Davlatu, sho'ro hukumati qancha pul sarf qilg'on? O'rta Osiyoning mana shu madaniyat asarlarining tarixini tiklash, ularning sinfiy mohiyatlarini, san'atcha qimmatini maydonga chiqarish ilmning talabidir"¹⁹.

Fitrat o'tmish merosni o'rganish sohasida tadqiqotlar olib borib "Ahmad Yassaviy", "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida", "XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash", "Muhammad Solih", "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "Turk adabisti namunalari", "O'zbek

¹⁹ Fitrat A. Yopishmagan gajaklar. // Qizil O'zbekiston. 1921 yil 16-sentyabr

adabiyoti namunalari", "Kadimgi turk adabiyoti izlanishlari", "Ertaklar va haqiqatlar", "Fors adabisti zanjirlari", "Aruz haqida", "Qutadgʻu bilig", "Umar Hayyom", "Oʻzbek shoiri Turdi", "Insoniyat haqida Navoiy qanday fikrda", "Navoiyning forsiy shoirliği ham uning forsiy devoni toʻgrisida", "Ahmad Yugnakiy: "Xibatul haqoyiq", Farhod va Shirin" dostoni toʻgʻrisida", "A.Firdavsiy", "Bedil" kabi risolalarini yaratdi.

Bu ishlarning nomidanoq koʻrinib turibdiki, adabiyogimizning bugungi kunda tadqiq etilishi lozim boʻlgan muammolarini Fitrat oʻz zamonasidayoq hal etishga harakat qilgan. U qadimgi turk, fors, tojik, oʻzbek shoir va ijodkorlari haqida ham tadqiqotlar olib boradi.

Istanbul universiteti professori Fuod Kupruli oʻzining bir qator asarlarida Fitratning oʻtmish merosni oʻrganishga doir tadqiqotlariga oʻz munosabatlarini bildirib oʻtadi. Olim Fitratni "Devoni lugʻotit-turk"ning shoʻrolar davridagi ilk tadqiqotchisi sifatida baholaydi, uning "Qugadgʻu bilig", "Hibatul haqoyiq", "Muqaddimat ul-adab" nomli maqolalariga munosabat bildiradi.

Fitrat bu ishlarni yozishdan oldin Sharq va Gʻarb xalqlari madaniyati, tarixini, Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti va sanʼatini mukammal oʻrganadi. U uzoq asrlik oʻzbek fors-tojik, arab, hind adabiyotlari bilan oʻzaro bogliq boʻlib, bir-birini taʼsirida taraqqiy qilgan deb biladi. SHuning uchun biron-bir ijodkor merosini oʻrganishda boshqa tillardagi manbalarni ham oʻrganish kerak boʻladi deb hisoblab, oʻz ona tili turkiydan tashqari fors, arab, usmonli turk, rus va boshqa tillarni ham oʻrganadi. Bu adibga har tomonlama chuqur ilmiy asarlar yaratishga, koʻshni xalqlar tilini ham tushunish va bilishga imkon yaratadi.

Fitrat oʻzbek adabiyoti tarixining koʻpgina manbalarini birinchilardan boʻlib adabiyotshunoslikka olib kiradi. U oʻzbek adabiyotini eng qadimgi

davrlardan boshlab jiddiy ravishda tadqiq etadi.

Ayniqsa, u o'zbek shoiri va mugafakkiri Alisher Navoiy merosiga katta qiziqish va e'tiqod bilan qaraydi. Navoiyni "adabiyotimizning bobosi" deb ulug'lab, Navoiy ijodi, asarlari haqida bir qator maqolalar yozadi.

1926 yili yozilgan "Navoiyning forsiy shoirligi va uning forsiy devoni to'g'risida" maqolasida Navoiyning forsiy tildagi ijodiyotini tahlil qiladi. Navoiyni eng ulug' fors shoirlarining eng mashhur, eng qiyin asarlariga forsiychada javoblar ezganligini aytib, Xusrav Dehlaviyning "Bahrul Abror" asariga Navoiy "Tuhfat ul-afkor" nomli 26 baytdan iborat bir o'xshatma yozgan degan fikrni ham bildiradi.

Fitrat "Farhodu Shirin dostoni to'g'risida" maqolasida shunday nomli dostonlarning tarixi haqida gapirib, faqat Navoiyning shu dostonini emas, shu bilan birga Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviylarning shu nomdagi dostonlarini ham tahlil etadi. Fitrat Navoiyga katta hurmat bilan qarab, undan ko'p narsalarni o'rganadi.

U "Insoniyat haqida Navoiy qanday fikrda" nomli maqolasini ham bejiz yozmaydi. U ham Navoiy kabi o'z xalqi va vatanini sevadi, ulug'laydi.

Fitrat ijodiyotining asil ildizini millat o'tmishi va kelajagi uchun qaygurish, uni o'rganish tashkil qiladi. U millatning og'ir ahvolidan, ilmsiz nodonligidan, uning kelajagidan tashvishga tushadi va asaridagi bir qahramoni nomidan shunday fikrni bildiradi: "Ey bechora millat!... Siz bu millat haqida qanchalik iliq fikr aytman, men baribir ularni yomon ko'raman. Siz bu millatga qanchalik umid bilan boqsanjiz, men shunchalik umidsizlanaman. Bu shunday millatki, haqini g'arot etsalar, o'zi shu yog'mog'arlar ostiga bosh qo'yishni fazilat deb biladi... o'zlarining xaloskorlarini kofir deb ataydilar. Ulardan nimani umid kilish mumknn, qaysi kelajakni orzu qilish joiz".

Lekin allomaning o'zi millatini sevadi va u haqida yomon gaplar aytilishiga qarshi bo'ladi. Hind sayyohi nomidan yuqoridagi fikrga qarshi shunday deydi: "Sizning bu so'zlaringizdan millatingizga etadigan zarar talonchilarning yuz yillik xunrezligidan ko'ra besh battarroqdir. Sizning sabr qilmoqdan... boshqa chorangiz yo'q. Sabot va chidamdan boshqa narsasi bo'lmagan millatning hamma narsasi bo'lishi mumkin va sabot va matonatdan boshqa hamma narsasi bo'lgan millat hech narsasiz qolishi mumkin. Bir odamning saboti buyuk bir millatni isloh etishga qodir".

Fitrat o'zining butun hayoti davomida millatning porloq kelajagi uchun kurashadi, o'z xalqining buyuk kelajagiga ishonadi. U ham o'tmish allomalarimiz kabi xalqning og'ir ahvoli, unga zulm o'tkazuvchi zolimlar, amiru-ulamolar, ularning kirdikorlari haqida yozadi.

Fitrat o'z asarlarida muloyim shayxlarning nodonliklarini, xalqqa o'tkazgan zulmlarini, xalq manfaati uchun biror tadbir ko'rmaganliklarini fos qilib beradi.

Buxoro aholisining yana bir toifasi - ulamolar haqida adib shunday yozadi: "Bu dahshat to'la to'dalar ongsizlik tufayli bo'lsada, baxtga erishgan to'dalar yordamida bir-birlarini quvib, hukmronlik otiga minib, bechora, bebaxt xalqning mol-jon, arz, nomus va sharafini shafqatsizlarcha poymol etadilar".

Fitrat mana shu toifasiga kiruvchi hokimlarning hech kachon kishilar orasida hurmat qozona olmaganliklarini, turli yo'llar bilan hokimlik martabasiga erishib, maqsadlari faqat boylik orttirish ekanligini yozadi. Adib bu hukmronlarning savodsizliklari, hukmronlik qonun-qoidalari, ma'muriy idorani boshqarish yo'llarini, bu idora xodimining axloq va odobi qanday bo'lishi kerakligini bilmaydigan kishilar ekanligini ko'rsatadi. Bular millat qanday yuksaladi, mamlakat qaysi yo'l bilan boyiydi, davlatning xazinasini

qanday to'ladiki kabi masalalarni o'ylab ham ko'rmaydilar. Fitrat ular haqida: "Ma'lum bir mansabdor hokim podisholardan ham ustun qo'lib yozgan she'ralaridan misollar keltiradi. Navoiy podshoga shunday murojaat qiladi:

"Bil munikim, sen dog'i bir bandasen,
Ko'pragidin ojizu afgodasen.
Ermas alar tufroqu isi nuri pok,
Xilqat alargayu senga tiyra xok.
Barcha javorix bila a'zoda teng,
Sur'ati navoi hayoloda teng".

Navoiy podshohlarning hunar, axloq, adl, insof va ibodat yo'lida ham oddiy xalqdan o'ta olmaganligini shunday ifodalaydi:

"Lek hunar ichra, kamol ichra ham,
Xulqu xushu lutfi maqol ichra ham.
Xam ravishu adlu ham insof aro,
Shar tariqida ibodatda ham
Sen tushibon yo'l naxajidin yiroq,
Ko'pragi sindin yuribon yaxshiroq"²⁰.

Fitrat ham o'zining "Hindiston sayyohi qissasi"da Buxoro aholisini uch toifa: ulamo, umaro, fuqaroga ajratib, ularni ta'riflaganda Navoiyning podshoyu amaldorlarni ko'p jihatdan xalqdan past degan qarashlarini davom ettiradi. U Buxoro ulamolarini shunday ta'riflaydi: "Buxoro ruhoniylarning eng mo'tabar maqomiga ega bo'lgan bir jamoa kishilar bugungi haqiqiy bilimdan mutlaqo xabarsizdirlar. Yigirma yil tahsil olib, yana yigirma yil dars berib, undan keyin muftilik mansabiga erishib, yana arab kitoblarini o'qishda qiynaladilar, o'zlarining fors tilidagi fiqh kitoblarini afzal bilib, oyatlarni qanday istasalar shunday sharhlaydilar". Fitrat reaksiya amaldorlarning

²⁰ Fitrat A. Insoniyat haqida Navoiyning fikri.// Sirli olam. 1992 yil. № 12 6-b

kirdikorlarini fosh qilishda Umar Hayyom qarashlaridan ham foydalanadi. U "Fors shoiri Umar Hayyom" maqolasida Hayyomning mayxoʻrlik haqidagi ruboiylaridan namunalar keltirib, ulardan shunday mantiqiy xulosalar chiqaradi: "Bu ruboiylar Saljuqlar saroyining eng teran, ham eng kirlik nuqtalarigacha koʻrsatuvchi chiroyli oynachalardir. Bular Eron saljuqlari saroyida yigʻilib, hukumat idorasi boshida oʻtirgan, oʻzining bir daqiqalik kayf-safosidan boshqa narsani tushunmagan, mamlakat idorasi, xalq tinchligi haqida emas, oʻzining ertasi haqida ham oʻylashdan bezgan tilaksiz, irodasiz, buzuq, chirik bir jamoatning ruhiy holatlarini koʻrsatadi. Mamlakat ertasini oʻylash bular uchun gʻaflat sanaladur".

Adib oʻzining qator dramalari, "Amir Olimxonning hukmronlik davri" risolasida ham podsholar saroyidagi buzuqliklar va amaldorlariing xalqqa oʻtkazgan zulmini koʻrsatib beradi.

U aholining uchinchi toifasiga fuqarolarni kiritib, ular haqida: "Bu bechoralarda ayb yoʻq, ular har tomonlama qobiliyatlidirlar. Shunchalikki, buni oʻzlari "bilmaydilar"-deb yozadi. Bu bilan Fitrat barcha qobiliyatli, xalqni, Batanni oʻylaydigan kishilar fuqarolar ichidaligini taʼkidlaydi, lekin oʻsha hayot sharoitida ularga ahamiyat berilmasligi, oʻz imkoniyatlari, qobiliyatlarini namoyon etadigan sharoitning yoʻqligi tufayli, ularning intilish va qobiliyatlari hisobga olinmasdan yoʻq qilib yuborilishini alam bilan, kuyinib yozadi. U xalqning yuksaklikka koʻtarilishi va hayotdagi oʻz munosib oʻrnini topishi uchun harakat qildi va oʻzining xalqparvarlik faoliyatida Yassaviyning kuyidagi soʻzlarini asos qilib oldi:

Gʻarib, faqir, etimlarning boshin silab,
Koʻngli qattiq xaloyiqdan kechtim mano.
Gʻarib, faqir, etimlarni har kim soʻrar,
Rozi boʻlur ul bandadin Parvardngor.

Fitrat xalqqa zulm o'tkazuvchilarni "Qonxo'r", "zulmparvar" deb ularga o'z nafratini bildiradi. O'zining maqolasida Navoiyning podsholarning zolimligi haqidagi quyidagi misolini keltiradi: Zulmung emas erdi xaloyiqqa kam, Kim qiladursen ani o'zungga ham. Zulm o'zungga fisqdur, ey xusher, Gum qil ani, bo'lsa sanga xush yor. Adib o'zining qator she'rlarida ham ayrim zolim podsholarning zulmlarini fosh etadi. Uning 1920 yilda yozgan bir she'rining mazmuni:

"Johil shoh hatto qushlarning uyasini qonga to'ldirdi, Boshga toshlar yog'ildi, yurakka otash urildi. Adolat nomining ko'l oyog'i boglandi. Yurak xonimoni zolim taxti ostida siniq bir ahvolda qoldi".

Yoki boshqa bir she'rida yozadi:

U shunday zolimki, uyimizni xarob ayladi.

U shunday zulmki, yuragimizni kabob ayladi²¹.

Fitrat Amir Temurni buyuk vatanparvar va miplatparvar shaxs sifatida biladi. Sohibqironning farzandlariga qilgan "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaifalarni qo'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin" - degan vasiyatini Fitrat ham o'z xalqining kuchiga ishonadi, ularni mustaqillikka erishgunga qadar kurashdan to'xtamaslikka chaqiradi: "... Chiqasen, kurashasen, engilasen, qochasen, bir ozdan keyin yangidan bosh ko'tarib yer yuzini yoritasen - zulmga qarshi kurashganlar sendan saboq olsinlar".

Adibning o'zi ham vatan ozodligi yo'lida tinmay kurashadi. Uning ijodiyoti yo'nalishlaridagi bosh masala, asosiy goya xam millatni, vatanni, xalqni farovon hayotga va ma'naviy yuksaklikka erishishi masalasidir.

Fitrat vatanparvarligida yurtniig boy tarixi, buyuk qahramonlari, yuksak madaniyati, tunganmas xalq merosi bilan faxrlanish muhim ahamiyat

²¹ Yo'ldashev N. Abdurauf Fitratning "Raxbari najot" asaridan muxtasar fasllar. Buxoro. 1996. 11-b

kasb etadi. U o'zining maqolalarida Turkistonni bir vaqtlar dunyodagi eng buyuk davlatlardan biri bo'lib, bugun jahonga mashhur bo'lgan allomalar etishtirib berganligini ta'kidlaydi: "Bizning Turkistonimiz turk ulusining beshig'i bo'lmog'i bilan iftixor qiladir.

Abbosiylardan so'ng islom saltanatiga qorovullik qilgan turk hoqonlarining oxiri va ulug'laridan bo'lg'on Temur yanglig' turk qahramonini Turkiston yetishtirdi. Yana abbosiylardan keyin "madaniyat bashariyatini" ko'targan turk olimlarining kattakonlari bo'lgan Abu Ali, Ulug'bek, Javhariy va Forobiy kabi hurmat tirg'aklarini Turkiston chiqardi"²².

Adib shunday buyuk bir yurtning o'z davriga kelib ayanchli ahvolga tushib qolganligidan g'am chekadi, buning sabablarini izlaydi. Yurtini Amir Temur kabi milliy qahramonlarga muhtoj ekanligini kuyidagicha tasvirlaydi: "Ey Chingizlarning, Temurlarning, O'g'uzlarning oilalarining shonli beshiklari! Qani uchiqsiting yuksak o'rinlari? Qullik chuqurlariga nisdan tushding?! Alloma Fitrat Buxoro amirligidagi qoloqliklarning sabablarini ham amiru amaldorlarning o'z xalqini o'ylamasliklari, turli toifalar o'rtasida ittifoqning yo'qligida deb biladi: "Turkistonimizdagi sinflardan hech biri o'zgasi bilan qardoshlik holinda emaslar. Imlo bilan yoshlar, shoxlar bilan boylar, boylar bilan ko'p orasinda ayriliq bor, yovlik bor. O'z oralarinda ham sog'lom bir ittixoq, chidamli bir ittifoqsan asar yo'q".

Adib o'zaro hamkorlik va ittifoq yo'qligini millat uchun ogir balo bo'lib, hatto millatlarning yo'q bo'lib ketishiga, boshiga ko'p kulfatlar tushishiga olib keladi deb hisoblaydi. U Markaziy Osisning Rossiya tomonidan bosib olinishini ham mana shu ittifoqning yo'qligi tufayli yuz bergan hodisa deb biladi. Adib Turkistondagi bu ittifoqsizlikdan foyda

²² Fitrat A. Turkistonda ruslar.// Sharq yulduzi. 1992 yil №4 38-b

ko'rgan va manfaatdor bo'lgan bu chor hukumati ekanligini ko'rsatib deydi: "... imperatorlik hukumati chin ko'ngildan tilar edi: qo'l ostingizdagi o'zga millatlar ezilsunlar, xarob bo'lsunlar, saodat yuzin ko'rmasunlar, tilanchilar kabi yashasinlar. Shuning uchun oramizdagi tortishmalarni kengaytirmoq, o'rtamizdagi ayriliqlarni olovlamoq uning vazifasi edi".

Abdurauf Fitrat o'zining insonni ulug'lash haqidagi g'oyalarini yaratishda ham Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojiblardagi insonparvarlikka tayanadi, ayniqsa Bedilning "dunyoda eng buyuk narsa inson" degan ta'limotiga ergashadi. Bedilning shunday so'zini keltiradi: "Insonki o'ziga ishonsa, o'z vijdoniga ergashsa, har ishni qilar, har haqiqatga, har tilakka erishadur. Hazrati insonga topinmagan kimsa kim bo'lsada mal'undir" .

... Dunyoni "urxo"lari bilan titratgan yo'lbars yurakli bolalaring qani?... Qani u chaqmoq chaqishli botir haqonlaring? Qani u avval o'q yurushli otli beklaring?

Insonlik olamini qanotlari ostinda olgan haqonliging kuchi o'ldi? Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi?".

Fitrat parchalangan, Turkiston nomidan buyuk soxibqiron Amir Temur saganasiga iltijo qilib deydi: "Bag'rim yoniq, ko'zim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukuk. Sening ziyoratingga keldim, sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o'rtangan jonim uchun bu saganangdan davo izlab keldim haqonim.

Mustamlakachi chor Rossiyasi tomonidan talanib, nochor ahvolda qolgan Turkiston holatini sohibqironga shunday basn etadi: "Ulug' haqonim! Turklik sharafi talandi... Turkning nomusi, e'tibori, imoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostinda qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi. Turkning belgusi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat o'lkasiga ketdi."

Figurat o'zining "Yurt qaygusi" maqolasida vatanining og'ir ezilgan, qashshoq ahvolini bir o'zbek yigiti tilidan shunday tasvirlaydi:

"Yotsam tushimda, uygonsam ishimda, ko'z yumsam miyamda, ko'z ochsam qarshimda mungli bir xayol kelib turadur. Bu bir xotun xayoli... Bir xotunki, yegnida ipakli, lekin yirtiq va eski bir ko'ylakdan bo'lak bir kiyim yo'k. Bosh-oyoklari yalong'och, tirsaklaricha qop-qora loyqadan botgan, baqirurga tovushi, qugilurga kuchi qolmagan!..

Ey mungli xotun, sen kimsan? Ey gamgin ona, nechuk mundan ayrilmaysan?.. Oh... Bildim... Bildim... Angladim! Sen mening vatanimsan, Vatanimning mungli xayolisan" .

Fitrat bu yerda Vatanini mungli bir ayolga qiyoslaydi. U ayolning yirtiq, yupun kiyimlari, tanasidagi jarohat va yaralar, zulm zanjiri bilan bog'langan qo'llari misolida Vatanining og'ir va qashshoq ahvolini, mustamlakachilar o'tkazayotgan zulmlarni, yurtning erksiz, zolimlarga qaram bo'lib qolganligini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Alloma vatanining bunday tushkunlik holatidan chiqa olishiga ishonadi. O'lkaning avvalgi qudratini, Temur saltanatini Turkistonda qaytadan tiklamay turib kurashdan to'xtamasligini yozadi. Kishilarni vatan mustaqilligi uchun kurashga chaqiradi. Vatan qayg'usi har bir insonning qalbida, miyasida, vujudida bo'lishi lozimligini, vatandek go'zal maskanni har bir inson ardoqlashi kerakligini targ'ib qiladi.

"Bir yigit qoni" nomli she'rida adib Vatan ozodligi yo'lida o'z jonlarini ayamaydigan qahramonlar etishib chiqayotganini ko'rsatib beradi. She'r qahramoni vatan ozodligi yo'lida kurashib, qahramonlarcha halok bo'ladi va to'ppa-to'g'ri jannatga borib tushadi. "Xaq" undan yerdan nima tortiq olib kelganini so'raydi, yigit shunday javob beradi:

Bir kichkina shisha ichra bir tomchi qon kelturdim, Ko'p baholi bir

armugon kelturdim, Bunday sening xazinangda, uchmogingda topilmas,... Bu mukaddas qon, ey "Xaq!" Zolimlarning qilichila erk, ozodlik yo'linda Shahid tushgan bir yigitning yarasidan tomgandir! Fitrat millatning eng ulug' gururi vatanni sevmoq va vatan uchun qayg'urmoq deb biladi. Shuning uchun adib asarlari va dramalarining qahramonlari haqiqiy vatanparvarlar sifatida tasvirlanadi. Masalan,

Asarda yorga va diyorga bo'lgan muhabbat ajralmas holda beriladi. Asar qahramoni o'z sevgilisiga: "Xindistonni sevganim, yurtim, ulusimni sevganim seni sevganimdir", - deb aytadi.

Asar qahramonlari qanchalik murakkab bo'lmasin, yurtni ozod kilishni o'ylaydilar, ular "bir yovni yurtidan haydamoq, bir yurti yov qo'lida ko'rmoqdan qiyin emasdir", - degan fikrga keladilar.

Adibning o'zi ham qanday ahvolda bo'lmasin, Vatanini hamma narsadan ustun qo'yadi, usiz yashay olmasligini haqiqiy vatanparvar sifatida shunday ta'kidlaydi: "Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq mening o'limim. Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdur".

Fitrat vatanini panohim, umidim, tilagim, istagam, saodatim, suyunchim, ovunchogim,- o'chog'im deb ulug'laydi. U Vatanini o'z ijodiyotining sarhati va gultojisi kabi ardoqlab, "Mening Vatanim" she'rida shunday yozadi:

"Vatanimni ziyorat qilmoqqa erta tongda kel.

Hay-hay qanday vatan bu!

U mening sajdagohim, jonu tanimdir.

U mening osmondagi oyim, osoyishim, izzatim, sharafim.

Xam ka'bam, ham kiblam, ham chamanimdir".

Shoir vatani bilan iftixor etadi. U vatani taqdirini o'z taqdiri bilan chambarchas bog'liq deb biladi. Vatanining kulfat va gamini o'zining kulfat

deb, vatanining tinch-omonligini o'zining tinchligi deb biladi. U vatanining gullab-yashnashi, sharafiga burkanishini istaydi. Vatanni qa'bam, qiblam, sajdagohim deb hamma narsadan ustun qo'yadi.

Adabiyotshunos olim N.Karimov ta'kidlaganidek, Fitrat o'zbek she'riyati tarixida birinchi bo'lib Vatanni .onaga..qiyos qilib sevadi:

Onam! Seni kutqarmoq uchun jonmi kerakdur?

Nomusmi, vijdon bilan iymonmi kerakdur?

Temur bila Chingiz qoni toshdi tomirimizdan,

Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdur.

Yov suqqali kelgach qilichini yuragingga,

Tush oldiga, ol ko'ksimni - qalqonmi kerakdur

Vatanparvar alloma o'zining joni va butun borligini Vatan ozodligi uchun kurashga bag'ishlaydi. Yurt ozodligi uchun kurash yo'lida har qanday. qiyinchiliklardan, dahshatlardan, hatto o'limdan ham qo'rqmasligini, Vatan ozodligi yo'lida jon berishga tayyor ekanligini shunday bayon qiladi:

"Mana men bugun borligim bipan senga ko'mak qilurga hozir. Mana men, chin ko'ngil bilan sening yulingda o'lurga rozi. Qof tog'lari yo'limda tushsa, Tamug' olovlari qarshimda chiqsa, yana sen sari ketarman. Ustimga ilonlar emas, shaytonlar qo'shini kelsa, oyog'imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari choparman. Dunyoning butun balolari boshimga to'kilsa, zulm cho'lining temir tikonlari ko'zlarimga kirsas, yana seni qutqaraman.

O'zbekistonimiz o'z mustaqilligiga erishgan hozirgi kunda Fitratning vatanparvarlik haqidagi goyalari yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. **O'zbekiston Respublika birinchi** Prezidenti I.A.Karimov bunga alohida to'xtalib, shunday degan edi: "Milliy istiqlolimizni otashin kurashchilaridan biri Abdurauf Fitrat bir she'rida "Vatan - sajdagohimdir" degan fikrni bayon

qiladi. Chindan ham vatan tuyg'usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday muqaddas, sajdagohday pok va ulug bo'lmogi kerak... Ulug' ajdodlarimizdan muqaddas meros bo'lib kelayotgan vatanga muhabbat tuyg'usi, farzandlarimiz, bugungi va kelajak ajdodlarimiz uchun chinakam e'tiqodga, chinakam aqidaga aylansin"²³.

Fitratning ma'rifiy pedagogik goyalarining ijtimoiy-siyosiy asoslarini tahlil qilish hamda adib qarashlari shakllanishidagi milliy, dunyoviy qadriyatlarning rolini ko'rsatish bilan bogliq bo'lgan yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

Fitrat dunyoqarashi shakllanishiga o'zi yashagan davr, ya'ni XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar, shu davrda yuzaga kelgan jadidizm mafkurasi va jadid ma'rifatchiligi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli Turkiston xalqi, mehnatkashlarining ahvoli juda ogir edi. Ayniqsa, Fitrat yashagan Buxoro amirligida xalq ikki tomonlama zulm ostida ezilardi. Bu hol esa adibni zulm va zolimlarga qarshi kurashga chorladi.

XIX asrning 90-yillarida jadidizm harakati yuzaga kelib, jadidlar o'sha paytdagi qashshoqlik,- xalqning og'ir ahvoli, ezilishi va xo'rlanishi ma'ryfatsizlik tufayli deb bildilar. Shuning uchun ular ilm, madaniyat, ma'rifat tarqatish goyalarini ilgari surdilar.

Ular ma'rifatchiliklarida maktab, madrasalarni isloh qilish, yangi maktablar ochish, tijoratni rivojlantirish, gazeta, jurnallar chiqarish, teatr, kutubxonalar barpo etish bilan shugullandilar.

Fitrat Buxoro jadidlari - "yosh buxoroliklar"ning rahbarlaridan biri sifatida jadidlarniig toylarini, ma'rifatni targ'ib qildi. Keyinchalik u jamiyat

²³ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1996. 82-b

rivojiga nimalar to'siq bo'layotganini teranroq tushundi. Uning qarashlarida istiqloq, tenglik, hurriyat g'oyalari paydo bo'ldi. Vatanini chorizm zulmidan ozod qilishni o'ylay boshladi.

Fitratning ma'rifiy pedagogik qarashlari millatining ilg'or an'ana, urf-odatlarini, xalq ogzaki ijodiyoti, o'tmish mutafakkirlar merosi va islom dini ta'limotlari ta'sirida shakllandi. Alloma bularning har birini chuqur o'rganadi, ulardan o'z ijodida samarali foydalandi.

Shularga tayangan holda o'zining millat va vatanparvarlik haqidagi g'oyalarini yaratdi. O'z taqdirini Fitrat millati taqdiri bilan bog'ladi. Unga zulm qiluvchilarga qarshi kurashdi. O'zidan oldingi mutafakkirlar kabi kishilarni o'z xalqini sevishga, insonni hurmat qilishga, bir-birlari bilan o'zaro do'st va birodar bo'lishga chaqirdi...

Millatning porloq kelajagi va Vatanning mustaqilligi uchun kurash Fitrat hayotining asosiy mazmunini tashkil etdi. U Vatan qaytusi va kuvonchini his etib yashadi. Vatanini ardoqladi, uni hamma narsadan ustun qo'ydi. Fitratning vatanparvarlik haqidagi g'oyalari yoshlarimizni vatanga muhabbat ruhda tarbiyalashda muhim yo'llanma bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham vatanparvarlikni o'tmish ajdodlarimizdan o'rganishga da'vat etdi: "Vatanni ardoqlash, uni yomon ko'zlardan va harakatlardan asrab-avaylash, himoyalash, kerak bo'lsa, ona yurtimiz uchun jonimizni ham fido qilishdek buyuk insoniy fazilatlarga o'rganmogamiz lozim... Biz ona O'zbekiston istiqloqlini, uning sha'ni shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor"²⁴.

²⁴ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1996. 83-b

Fitratning vatanparvarligi ham I.Karomov aytganlaridek, yoshlarimiz uchun muhim o‘rnak va namuna bo‘la oladi.

Buyuk faylasuf Xegel: "Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga tayyor ekanliklarida aks etadi" , - degan edi: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ko‘p qirrali ijod sohibi bo‘lgan Fitratni ham Xegel aytgan xalq qahramonlaridan biri deb hisoblash mumkin. U o‘z jonini Vatan ozodligi yo‘lida fido qildi. Vatan uchun o‘lmoqni o‘z tirikligi deb bildi.

II BOB. ABDURAUF FITRATNING MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA ULARNING AHAMIYATI.

2.1. Fitratning Turkiston maorifi va ma'rifatini rivojlantirish va millat ehtiyojiga xizmat qildirish borasidagi faoliyati.

Fitrat o'zining Turkiston maorifini rivojlantirish va uni millat ehtiyojiga xizmat qildirish sohasidagi ma'rifatchilik faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda olib bordi:

- o'z asarlarida ma'rifatni targ'ib etish va xalqni ma'rifatga chorlash;
- yangi usul maktablar tashkil etidi va ularda ta'lim-tarbiya berishda ishtirok qilish, ular uchun darsliklar yozish;
- gazeta va jurnallar chiqarish, matbuot organlari orqali ma'rifat tarqatish;
- teatr truppalari tashkil etish orqali ma'rifat va madaniyat tarqatish, truppalarga dramalar yozish;
- chet ellarga talabalar yuborib, mahalliy mutaxassislar tayyorlanishiga rahbarlik qilish;
- o'tmish adabiy va badaniy merosni to'plash, tahlil va targ'ib etish;
- ko'plab olimlar va muallimlarga ustozlik qilish;
- xalqni ma'rifatli qilishda o'qituvchining rolini ko'rsatish, o'qituvchilik kasbini ulug'lash.

Fitrat o'zining ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini ma'rifat izlash va xalqni ma'rifalta da'vat etishdan boshlaydi. Barcha ilg'or jadidlar kabi xalqni ilmli, ma'rifatli qilib, hayotni, jamiyatni yangilashga intiladi.

Adib o'zining "Munozara" va "Xind sayyohi qissasi" kabi dastlabki publitsistik asarlarida ma'rifatning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi, shuningdek madaniyat rivojida hayotbaxsh rolga katta ahamiyat beradi.

Buxoroda ilm-fan, o'qish va o'qitishning zamonaviy asosda yo'lga qo'yilishini, sog'lom va faniy asoslarga ega bo'lishini marifatli hayot uchun kurashda eng qudratli qurol deb biladi.

Lekin amirlikda ilm-fan, o'qitish va o'qish sohasida qoloqlik hukm surayotganligi, o'quv usullarining eskirganligi sababli xalqqa haqiqiy ma'rifat tarqatish ancha mushkul ish edi. Shuning uchun ma'rifatparvar Fitrat o'sha davr maktabi va o'qitish usullarini tubdan isloh qilish talablari bilan chiqadi.

Ilm-fan va madaniyat sohasida xalqimizning orqada qolish sabablarini ham ko'rsatib berishga harakat kiladi. Adibning fikricha, buning birinchi sababi maktablarda dunyoviy fanlarning o'qitilmasligi va diniy aqidalarning buzib talkin etilishidadir. Fitrat din hech qachon xalqni nodonlikka chaqirmagan, lekin hukmron tabaqalar din talablarini buzib ko'rsatib, xalqni dunyoviy bilim olishdan chalg'itib kelgan, - degan xulosani chiqardi. U dunyoviy fanlarga qarshi bo'lgan mutaassib ruhoniylarni qoralaydi, ularni tafsir, kalomi sharif, payg'ambar hadislarini yaxshi tushunmagan kishilar deb biladi. O'zining asarlarida ilmga da'vat qiluvchi hadislardan ko'plab keltiradi. Masalan, "Ilm agar Chinda bo'lsa ham uni tilab o'qingiz", "Bilmaganlar bilganlarga tenglasha olmaydilar" va boshqalar.

Ikkinchi sabab, turli fan va ilmga doir nodir asarlarimizning ayrim hukmdorlar qo'lga tushib qolib, bu hukmdorlar nodir asarlarning qadriga etmaganliklari oqibatida yo'qolib ketgan yoki g'arb sayyoh va savdogarlariga arzon-garovga sotib yuborilganligida deb biladi.

Fitrat qoloqlikning asosiy sabablaridan yana birini mustamlakachilik siyosati ekanligani aytib o'tadi. Mustamlaka holiga tushishimizga esa mamlakatdagi boylik va saltanat uchun o'zaro janjallar, turli tabaqalar o'rtasida hamkorlikning yo'qligi sabab bo'lgan deb hisoblaydi.

Mustamlakachi chor hukumati o'lkamizga Evropa madaniyatini olib kelishi, mamlakatning rivojlanishiga yordam ko'rsatishi lozim edi, lekin u yerli aholining ilm-fani, milliy madaniyati yuksalishiga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Fitrat Evropaning madaniy millatlari bilan qo'shila olmaganligimiz va ular bilan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa aloqalar o'rnatilgan olmaganligimizga sabab ham mustamlakachilik siyosati ekanligini aytib o'tadi.

Chor hukumati - mahalliy xalqlarning milliy qadriyatlari, hissiyotlari, diniga qarshi kurashadi, millatning o'zini anglashiga olib keluvchi har qanday faoliyatini to'xtatishga intiladi. Millatga o'zligani anglatishda yangi maktablar, gazeta va jurnallarning roli muhim ekanligini bilgan chor ma'murlari bu sohada ishlarni butunlay taqiqlashga intiladi. Buni Fitratning quyidagi fikrida ko'rish mumkin: "Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o'ldirmoq tilaga bilan Osturmov kabi mutaassib po'plarning idorasida gazeta chiqarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni onglatmoq uchun o'z tarafimizdan ochilgan maktablar va gazetalar bog'landi"²⁵.

Bu haqda jadid o'qituvchilaridan biri Mirmuhsin Shermuhamedov shunday yozgan edi: "Tabiiy Turkistonga maorif inspektori qilib belgilangan, kart missioner Ostroumovning ta'siri ila bizda ... muntazam maktab, madrasa ochila olmas edi. Kart missioner bunga chichroq (iflos) bir qasd ila qarshi keladir edi. Zero, tartibli bir maktab va madrasada o'qib chiqqan shogirdlarda diniy, milliy his-tuygular bo'lur edi. Ular missionerning pichroq maslakiga xizmat etmasdilar".

Chor hukumati yangi usul maktablar ochilishiga qarshilik ko'rsatish bilan birga o'lkada rus-tuzem maktablarini ochgan edi, bu maktablarda

²⁵ Fitrat A. Turkistonda ruslar.// Sharq yulduzi. 1992 yil №4 38-b

o'qitishning maqsadi esa mahalliy xalqdan o'zlari uchun tilmoch va xizmatkorlar tayyorlashdan iborat edi.

Turli qarshiliklarga qaramasdan marifatparvar jadidlar yangi usul maktablar ochishni to'xtatmadilar, biri yopilsa, ikkinchisini ochib turdilar.

Buxoroda xam yashi maktab 1908 yili ochildi. A.Fitrat yangi maktab ishlarida faol ishtirok etdi. Bu maktablarga chor hukumati ham, amirlik ham qarshi chiqa boshladi. Buni Fitratning quyidagi so'zlaridan ko'rish mumkin: "Yangi maktab masalasiga qatnashganlarimiz darhol maktab ochishga, bolalarni o'qitishga borildilar. Istibdod hukumati bu maktablarning natijasini maktabchilarimizdan ham yaxshiroq bilar ekan. Darhol bu maktablarga qarshi harakatga kirishdi. O'zining elchilaridan bo'lgan bir necha masapani maydonga chiqarib, "maktabni kofir qilish" to'g'risida so'z tarqatdi. Natijada albatta maktabni yopdilar".

Muhammadsharif So'fizoda Chustdan badarga qilinib, salkam 20 yilcha yurtma-yurt sargardon kezishga majbur bo'ladi. Abdulla Avloniy "daxriy", "munofiq"qa chiqariladi. Siddiqiy Ajziy 5-6 ming kishi huzurida Ulugbek madrasasi jom'sida "kofir" deb e'lon qilinadi. Toshkentlik Mirmuhsin Shermuhamedov Eski Jo'va bozori rastalarida sazoyi qilinadi. Qo'qonda Xamza ochgan maktablar yopilib, o'zi ta'qibga olinadi. Lekin ta'qiblarga qaramasdan yangi maktablar, uning tarafdorlari ko'payib boraveradi.

Chor hukumati bu maktablarga qarshi kurashda ulamodan foydalanishga intiladi. Ulamo esa zamondan xabarsizligi va din talablarini yaxshi tushunmaganligi sababli, chorizmning yangi maktab bolalarni dindan chiqaradi, degan aldoviga ishonib, yangi maktablarga qarshi chiqadi, maktablarni va undagi o'qituvchilarini "kofir" qilib turadi. Xalqning ko'pchilik qismi ham hukumatning aldovlariga uchib, yangi maktablarni

dinga qarshi maktab ekan deb o'ylaydilar va yangilik tarafdorlariga ishonchsizlik bildiradilar. Lekin yangi maktab afzalliklari tezda ko'zga tashlanib qoladi.

Jadidlar o'zlarining ma'rifatga chaqiruvchi g'oyalarini matbuot orqali targ'ib qilishga ham intiladilar.

Buxoro jadidlari yarim ochiq ishlaydigan "Ma'rifat" nonli shirkat tashkil etadilar. Bu shirkatning shahar passajida Ibn Sino nomli kitob magazini va kutubxonasi bo'ladi. Bularda amirlik siyosatiga zid bo'lgan kitoblar ham yashirincha sotilgan yoki kishilar kugubxonaga kelib ularni o'qiganlar.

"Ma'rifat" jamiyati 1912-1917 yillar mobaynida ma'rifat tarqatish va matbaachilik sohasida ancha ishlarni amalga oshiradi. Buxoro ziyolilaridan Fitrat, Ayniy, Sharifjon Mahmud, Xakim Buxoriy kabilarning hukumat siyosatiga zid bo'lgan asarlarini Turkiston shaharlari va chet ellarda nashr qildirib, xalqqa tarqatadi. Yangi maktablar uchun darsliklar nashr ettiradi.

Fitrat matbuot organlari orqali ham ma'rifat tarqatishga intiladi. Uning ma'rifatga chorlovchi ko'plab maqolalari Buxoroda o'zbek tilida chiqadigan "Turon", tojik tilida chikadigan "Buxoroyi Sharif" gazetalarida, Samarqandda chiqadigan "Oyna", "Alanga" jurnallarida, keyinchalik "Qizil O'zbekiston" gazetasi, "Maorif va o'qituvchi" jurnalida chiqib turadi.

Adib matbuotning xalqqa ma'rifat tarqdtishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunadi va o'zi ham matbuot organlari ishida ishtirok etadi. U ma'rifatparvar yozuvchilar Vasliy, Behbudiy, Siddiqiy, kabi o'zbek va tojik ziyolilari bilan hamkorlikda Samarqandda "Xurriyat" gazetasi ishlaydi. Gazetaga muharrirlik qiladi. Ko'plab dolzarb mavzulardagi maqolalarini shu gazetada nashr ettiradi.

Turkistonda "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", "Oyna" kabi

jadid gazeta va jurnallarining tashkil topishida ham Fitratning xizmatlari katga bo‘ladi.

Uning tashabbusi bilan va muharrirligi ostida 1920 yil 9 aprelda “Tong” jurnali chiqq boshlaydi, lekin uning faoliyati uzoqqa bormaydi, 15 mayda 3-soni chiqib to‘xtab qoladi.

Fitrat teatr san’ati orqali ham xalqqa madaniyat va ma’rifat tarqatishga intiladi. Xujjat asrov materiallaridan ma’lum bo‘lishicha, u 1914 yillarda Buxoroda havaskor teatrchilik ishini yo‘lga qo‘ygan. O‘zi sahnada rollar o‘ynagan. Teatrdan tushgan pullarni 1914 yil urushda jabr ko‘rgan musulmonlar foydasiga o‘tkazgan. Bunday ishlari uchun Buxoro qushbegasidan martaba olib, dovruga elga yoyilgan. Teatr truppalari uchun dramalar yozib bergan. Uning "Chin sevish", "Arslon" kabi dramalari o‘sha paytlardayoq sahnada qo‘yilgan. Fitrat 1923 y. VLanskiyni teatr ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun Buxoroga taklif etadi.

Adib 1918 nil aprelda Toshkentga kelib, bu erda o‘qituvchilik kiladi. Uning bu erdaga eng katta ishlaridan biri "Chig‘atoy gurungi"ni yo‘lga qo‘ygani bo‘ldi. U jamiyat safida madaniyatimiz tarixida aloxida o‘ringa ega bo‘lgan o‘tmish merosimizni o‘rganish va ulardan xalqni baxramand etish, avlodlarni ajdodlarning o‘lmas ruhiyati bilan bog‘lashda katta xizmat qildi.

1921 yil 10 avgustda hukumatning farmoni bilan Buxoroda ochilgan Sharq musiqa maktabining tashabbuskori ham Fitrat bo‘lib, u maktabga o‘z hovlisini hadya etadi.

Alloma Fitrat 1921 yili Buxoroda F.Xo‘jaev tashabbusi bilan tashkil etilgan ilmiy jamiyat ishlarida ham faol qatnashadi. Bu jamiyat nodir kitoblarni to‘plash ishi bilan shugullanardi. Jamiyat harakati tufayli Buxorodaga eng boy kugubxona - amir kutubxonasining bir qismi, Buxoro qozikaloni Sharifjon Mahdumning 300 tomlik kutubxonasi va amir

Abdulahadning ukasi taxt vorisligiga da'vogar Siddiqjon (taxallusi Xashmat) ning to'plagan kitoblari davlat mulkiga aylantiriladi.

Fitrat mumtoz adabiyotni e'zozlash, o'rganish bilan birga ularni kelajak avlodlarga ham etkazishga harakat qiladi. Professor N.Karimov "Kutadgu bilig"ning topilishi" risolasida asarning Namangan nusxasi topilishida Fitratning roli haqida ayrim lavhalar keltiradi. Asar qo'lyozmasining Respublika kitob jamgarmalaridan biriga sotilishi, uning ilmiy o'rganilishi va dunyo yuzini ko'rishi ham Fitrat nomi bilan bogliq. Adib noyob qo'lyozmalarni chet el valyutasiga sotib yuborishga qarshi chiqadi.

1921 yil noyabrdan 1923 yil iyunigacha Fitrat Buxoro XR ning maorif noziri lavozimida ishlab barcha o'zbek, tojik va boshqa millatlarning bolalari uchun yangi maktablar ochish, o'qituvchilarga metodik qo'llanmalar tayyorlashda katta ishlar olib boradi.

1921 yili Buxoroda 11 ming o'quvchilarni bag'riga olgan 175 maktab bor edi. 1923 yili Fitratning bevosita rahbarligida yana 40 ta boshlangich va o'rta maktab, 12 ta internat, 4 ta musiqa maktablari ochildi. 1922 yili mazkur maktablarni o'qituvchilar bilan ta'minlash maqsadida Buxoro va Chorjo'y shaharlarida xalq o'qituvchilar institutlari tashkil etdi.

1923 yil 4 martda Buxoro maorifchilarining birinchi qurultoyi bo'lib, unda Fitrat "Maorif ishlari" xususida ma'ruza qiladi. Shu davrlarda otalarning bolalarini maktabga berishga, o'qitishga qiziqishi pasayganini ko'radi. Bu ishni zo'rlik ishlatish bilan hal etib bo'lmasligini ma'ruzasida ta'shlaydi: "Zotan qurol kuchi bilan bir millatni yuq etmak kulay, bor etmak mumkin emasdir. Qurol kuchi bilan hech bir jamoani madaniyat sari jo'natib bo'lmaydir. Shuning uchundirkim, so'nggi kunlarda maorif nazorati bu masalani bitirmakchi bo'ldi. Talabalarning davomini tamin etmak uchun boshqa yo'l tushunildi. Har maktabda o'qigon talabalarniyag otalari,

validalari chaqirilib, shul maktabda bir majlis yasaldi. Majlisda to'plangan otalar o'z oralaridan uch kishilik komissiya sayladilar. Mana shul uch kishilik otalar komissiyasiga topshirildikim: bunlar maktab foydasini ham xalq oldinda xam nazorat oldinda ham mudofaa etsunlar. Talabalar kelmaganda o'zlari turli tadbirlar bilan keltursinlar" .

Fitrat qizlar maktablarini ko'paytirish, qizlarni ko'proq maktablarga jalb etish, ishlar ittifoqi bilan olib boriladigan ishlarni kuchaytirish, qisqa muddatli savod kurslari ochish, rus tili maktablarini ochish, mehnat maktablarini isloh qilish masalalariga ham to'xtalib o'tadi. U xotin-qizlarni o'qitish masalalariga alohida e'tibor beradi. Jamiyatni nodonliqdan qutqarish uchun avvalo xotin-qizlarni ma'rifatli qilish kerak deb hisoblaydi. Shuning uchun 1923 yili 3 ta qizlar maktabi tashkip etadi.

U yoshlarni chet tillarni o'rganishga da'vat etadi. Mamlakatni rivojlantirish uchun chet ellar fani, madaniyatidan xabardor bo'lish lozim deb biladi. Hatto yoshlarni chet ellarga borib o'qib kelishga da'vat etadi: "Boshqa tomondan Buxoroning zehni o'tkir yigitlarini, yoshlarini Ovro'poga yuborib, tib ilmini o'rgatishsin". Bu fikrni u 1911- yildayoq aytib, talabalarni Evropa shaharlarida o'qib kelishlari uchun ketadigan harajatlar miqdorini, bu harajatni madrasaning vaqf puli hisobidan berish mumkinligini, shu yo'l bilan 1 yilda 10 ta talabani faqat tib ilmini o'rganish uchun chet elga yuborish mumkinligini hisoblab beradi. Bu 10 ta talaba to'rt yilda o'qishni tugatib kelgach, yana 10 ta talabani yuborish mukinligini ta'kidlaydi. Shu yo'l bilan o'zimizdan mutaxassislar tayyorlashni taklif etadi.

Jadidlardan yana biri Abdulhamid Cho'lpon hatto qizlarni ham chet eldarga yuborishni taklif qiladi: "O'zbekning erkin yigitlari emas, tutqun qizlari ham isyon boshlasa, o'zi uchun eng totli bo'lgan elidan, ota-onasidan kechib, minglab chaqirim erga ketsalar, odam qatori haqqini, turtin emasdan,

urilmasdan, so'kulmasdan o'z huquqini ortug'i bilan qozona olamiz. Eski turmush o'lim to'shagida"²⁶.

Fitrat chet elga talabalar yuborish haqidagi fikrlarini o'zi Buxoro xalq maorifi noziri bo'lib ishlagan davrda amalga oshiradi. U 1922-1923 yillarda Turkistondan Germaniya, Turkiyaga talabalar yuborish, u erdagi ilg'or Evropa ta'lim-tarbiyasi, ilm-fan, texnika sirlarini o'rganish, yangi Buxoro XR va Turkistonda maorif va madaniyatni rivojlantiruvchi mahalliy milliy kadrlar tayyorlash tashabbuskori va tanlovchilaridan biri bo'ldi. Shu davrdagi Buxoro xalq respublikasi raisi Fayzullo Xo'jaev, Turkiston Sho'rolar respublikasi rahbarlari Turor Risqulov, Abdulla Rahimboev, Nazir To'raqulovlar bilan birga Olmoniyaga o'qishga jo'natadi. Buxoro milliy hukumati 46 nafar va Turkiston tomonidan Olmoniyaga tahsil olish uchun turli shaxarlardan jami 60 dan ortiq o'quvchilar yuborildi, ularning ichida 8-10 yoshli bolalar ham bor edi. Ularning boshlang'ichdan oliy maktabgacha tahsil olishi ko'zda tutiladi. Bolalar olmon oilalariga joylashtiriladi. Buxoro hukumati talabalar nazorati uchun "Buxoro kultur komission"i tuzadi. Talabalarning Olmoniyada yashashi, o'qishi, tarbiyasidan xabar olib turiladi.

Fitrat va Buxoro hukumati talabalarning kelgusidagi tahsili uchun Olmoya bankiga dollar o'tkazadi. Olmoniyadaga o'zbeklar "Ko'mak" nomli o'zbekcha jurnal chiqarishadi.

Fitrat keyin ham o'zining xalqqa madaniyat va ma'rifat tarkatish sohasidagi faoliyatini davom ettirdi. 1918-1920 yillarda partiya matbuotida, sovet maktablari va o'quv yurtlarida xizmat qiladi. Faqat adabiyotdan emas, algebra va geometriyadan ham dars beradi.

Fitratning tashabbusi bilan boshqa shaharlardan Cho'lpon, Uyg'ur va

²⁶ Cho'lpon Abdulhamid Sulaymon. Istiqlool uchun kurash. Sovet O'zbekistoni.-T: 1990. 138-b

ko'plab ijodiy xodimlar Buxoroda ishlash uchun taklif etiladi. U 1923-24 yillarda Moskva va Leningradda yashab ijod qiladi. U bu yillari Lazarev nomidaga jonli Sharq tillari institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi, shu erda va Leningrad universitetida ma'ruza o'qiydi. Leningrad universiteti uni klassik adabiyot namoyondalari to'grisidagi tadqiqotlari uchun professorlikka tavsiya qiladi. Jonli Sharq tillari institutining ilmiy Kengashi unga professorlik unvoni berish haqidagi tavsiyani tasdiqlaydi.

Adib Moskvadan qaytgach, Samarqandda yashaydi. 1924 yili Samarqand xoreografiya o'quv yurtida, 1925 yildan turli madaniy-oqartuv, o'quv va ilmiy tadqiqot institutlarida ishlaydi. 1924 yili Samarqand pedakademiyasi tashkil topgach, shu yerda o'zbek adabiyoti tarixi va o'zbek tilidan dars beradi. Yangi o'zbek alfaviti komitetida (1926); Buxoro va Toshkent o'qituvchilar institutlarida; 1931-1933 yillarda O'zbekiston madaniy-kurilish ilmiy-tadqiqot instituti, 1934-1937 yillarda esa til va adabiyot ilmiy oliygohida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shugullanadi.

Professor Fitrat o'sha yillardayoq akademik A.Samoylovich, Smalov, E.E.Bsrtelslar bilan hamkorlikda Markaziy Osiyodagi mahalliy millatlardan sharqshunos olimlar, muallimlar tayyorlash ishiga yaqindan yordam beradi. Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Oybek, Xodi Zarifov, Izzat Sulton, Homil Yaqubov, Rahim Hoshim kabi taniqli adabiyotshunos va olimlarga bevosita yoki bilvosita murabbiylik qiladi.

1934 yil O'zbekiston fanlar komiteti qoshida tuzilgan mustaqil ilmiy-tadqiqot institutlariga aylangan ilmiy muassasalarda taniqli olimlar Og'ajon Hoshim, G'ozir Yunusovlar bilan birga yosh adabiyotshunos va tilshunos olimlarga o'zbek tili adabiyoti tarixi va fors tilidan dars beradi.

Ma'rifatparvar Fitrat xalqni nodonlikdan, yurtni qashshoqlik, zulm va asoratdan kutqazishda o'qituvchining o'rni juda katta ekanligini tushunadi.

Xalqqa madaniyat va ma'rifat tarqatishning ahamiyati katta ekanligini tushunadi. Xalqqa madaniyat va ma'rifat tarqatish sohasida ham asosiy hal qiluvchi kuch o'qituvchi deb biladi. U xalqqa to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, yorug' yo'llarga boshlaydigan, g'aflat uyqusidan uygotadigan, uning ongini ochadigan ham o'qituvchi ekanligin aytib, o'z she'rlarida o'qituvchini tarannum etadi. O'qituvchi o'z ilmi bilan, ma'rifat nuri bilan butun Turkistonni ham bu og'ir kunlardan chiqarib, yorug' kunlarga etkazib borishiga ishonadi. Fitrat o'qituvchini "ma'rifat arsloni", deb ulug'laydi. "O'qituvchilar yurtiga" she'rida o'qituvchi va ilmni dunyoni o'zgartiruvchi kuch sifatida ta'riflaydi.

SHunday qilib, ma'rifatparvar Fitrat o'z faoliyati davomida xalqni ma'rifatli qilish, nodonlikdan qutqarish, madaniyat tarqatish va shu orqali mamlakatni yuksaltirish uchun intildi. U dastlabki asarlaridayoq ma'rifatning jamiyat rivojidadagi ahamiyatini ko'rsatish bilan birga xalqni ma'rifatga da'vat etdi.

Fitrat Turkistonda maorif yuksalishiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Xalqni nodonlikdan kutqarishda yangi usul maktablarning o'rnini muhim deb bilib, bunday maktablarni tashkil etish va ularda ta'lim-tarbiya berishda ishtirok etdi. Musiqa maktabi tashkilotchisi bo'ldi. O'quv muassasalari uchu darslik va qo'llanmalar yozdi, nashr ettiradi.

Fitrat milliy o'zligimizni anglashda o'tmish adabiy va madaniy merosining ahamiyatini muhim deb bilib, uni chuqur o'rganib taxlil etib xalqqa yetkazib beradi. Xalqning madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishda ham o'tmish meros asos bo'ladi deb hisoblaydi.

U Turkistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun keng ilmiy bilimga ega bo'lgan mutaxassislar kerakligini tushunib, mahalliy millat vakillaridan chet ellarga o'qishga yuborish ishlariga boshchilik qiladi.

Olim turli o'quv yurtlarida ishlab, ko'plab mutaxassislar tayyorylash ishida faol ishtirok etadi. Turkistonning madaniy va ma'naviy yuksalishi uchun tinmay kurashadi.

2.2 Fitratning maktab va ta'lim mazmuni haqidagi g'oyalari.

Mohir pedagog Fitrat xalqni ma'rifatli qilishda turli o'quv yurtlari, ta'lim-tarbiya muassasalarining ahamiyatini juda muhim deb biladi. Buni otabobolarimiz ham tushungan holda ko'plab o'quv muassasalari - maktab va madrasalar ochganliklarini ta'kilaydi: otalarimiz ilm olishning ahamiyatini tushunib, ikki yuz madrasa, har madrasada esa o'ntadan o'n beshtagacha hujralar kurganlar. Mudarris va shogirdlarning kundalik harajatlarini hisobga olib yiliga to'rt million tangadan ortiq vaqf puli ajratganlar. Talabalarning o'qishlarini to'la ta'minlash uchun o'n bitta kugubxona qurib, o'z davrlarining kitoblari shu erga to'plaganlar²⁷.

Adib o'zining asarlarida Buxorodagi barcha madrasa va maktablar haqida to'la ma'lumot beradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra Buxoroda 200 madrasa bo'lib, ular uch: oliy, o'rta, ibtidoiy toifalarga bo'lingan. Ko'kaldosh, Devonbegi madrasalari eng katta oliy toifadagi madrasalardan bo'lib, ularning yillik vaqflari 150 ming tangani tashkil etgan. Ibtidoiy toifaga mansub madrasalar soni yuzdan oshiq bo'lib, ularning yillik umumiy vaqfi 500 ming tanga bo'lgan.

Fitrat Buxoroda uch yuzga yaqin boshlang'ich maktablar borligini aytib, lekin ta'lim tarbiya berish, axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganligini ko'rsatadi. U maktabni jamiyat rivojini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzuvchiliklar, o'g'rilik va razolatni yuqotishi lozim deb biladi. Lekin bu davrdagi maktablar uning talablariga javob bera olmasdi.

Adib madrasalardagi o'quv muddatining uzunligi, mudarrislarining

²⁷Fitrat.A Hind sayyohining qissasi. // Sharq yulduzi. 1991.№8 39-b

challasavodliklari, dasturlarning xastdan uzoqdigini, o'qitish usullarining eskirganligini tanqid qiladi. Shu bilan birga Buxoroda ilm olish uchun sharoitlar borligin ko'rsatib o'tadi: "... bugun ilm olish uchun sizning shahringizda barcha sharoit mavjuddir. Masalan, bir johil millatining olim bo'lishi uchun uch narsa zarurdir: pul, madrasa. Sizning Buxorongizda madrasa ham, pul ham bor, chunki bu vaqflarning barchasi ilm olish uchun vujudga kelgan; faqat shuni aytish kerakki, sizlarning dars berish va dars olish tartiblaringiz oson"²⁸.

SHunday qilib, Fitrat Buxorodagi eski maktab va madrasalar-da o'qitish talabga javob bermay qo'yganligani ko'rsatib, ularning o'rniga yangi usulda o'qitiladigan maktablar ochishni, xalq ta'limi-ning o'rta asrchilik tizimini davr talabiga javob beradigan tizim bilan almashtirishni yangi maktab va yangi o'qitish uslubini yoqlab chiqadi.

Asrimiz boshlariga kelib qator ilgor ziyolilar yangi usul maktablari tashkil etadilar. 1903 yilga kelib 102 ta boshlangich, 2 ta jadid maktabi bo'lib, ularning 6 tasi Buxoro amirligida, 8 tasi Xiva xonligida edi.

1902-1903 yillarda Kaipov degan tatar o'qituvchisi eski maktabni yangi usulda o'qitiladigan maktabga aylantiradi. Buxoroda ochilgan bu maktab ham tez vaqt ichida yopiladi.

1907 yilda Buxoroda rus va tatarlarning bolalari uchun yangi maktab ochilib, bunga mahalliy xalq bolalari qabul qilinmaydi. Bunda tatar tili yangi tovush usulida o'rgatiladi.

Profssor K.E.Bendrikov 1905-1907 yillarda yangi usul maktablari nihoyatda rivojlanib, ularda asosan qrim tatar o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarini olib borganligini yozadi.

²⁸Fitrat.A Hind sayyohining qissasi. // Sharq yulduzi. 1991.№8 39-b

Bu horoda mahalliy bolalarning ta'lim-tarbiya olishi uchun birinchi yangi usuldagi maktab 1908 yil oktyabrda ochiladi. Buni asosiy tashkilotchisi Mirzo Abdul Vohid bo'lib, o'qish fors tilida, ibtidoiy toifaga mansub madrasalar soni yuzdan oshiq bo'lib, ularning yillik umumiy vaqfi 500 ming tanga bo'lgan.

Fig rat Buxoroda uch yuzga yaqin ibtidoiy maktablar borligini aytib, lekin ta'lim tarbiya berish, axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganligini ko'rsatadi. U maktabni jamiyat rivojini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzqliklar, badahloqliklar, o'g'rilik va razolatni yo'qotishi lozim deb biladi. Lekin bu davrdagi maktablar uning talablariga javob bera olmasdi.

SHunday qilib, Fitrat Buxorodagi eski maktab va madrasalarda o'qitish talabga javob bermay qo'yganligini ko'rsatib, ularning o'rniga yangi usulda o'qitiladigan maktablar ochishni, davr talabiga javob beradigan tizim bilan almashtirishni yangi maktab va yangi o'qitish uslubini ishlab chiqadi.

Tadqiqot natijasida Fitratning fanlarni tasniflash tizimi Ibn Sinoning "Ash Shifo" asarida berilgan tasniflash tizimiga yaqinligini aniqladik. Ibn Sino bu asarida 22 ta fanni tasniflab, xar biriga bag'ishlab alohida kitob yozadi. Fitrat esa bunga hisob, jabr, handasa, astronomiyani kiritib, musiqani alohida go'zal san'atlarga qo'shadi.

Ibn Sino tabobat ilmini bu tasnifga kiritmasdan, unga bag'ishlab alohida asarlar yozadi. Fitrat esa tabobatni tabbiyot ilmlariga kiritadi.

Fitrat ham fanlarni tasniflashda tabiiy ilmlarga alohida ahamiyat beradi. Inson bilimi va dunyoqarashini o'stirishda bu ilmlarning o'rganilishini muhim deb biladi. Shuning uchun u "O'quv" darsligiga ham tabiiy ilmlarni o'rganishga qaratilgan materiallarni ko'proq kiritadi. Darslikdagi

hikoyalarning deyarli yarmisi tabiiy fanlar: geografiya, astronomiya, zoologiyadan ma'lumotlar beradi.

Fitrat Forobiynng “Qanday qilib ta’lim berish yoki ta’lim olish, qanday qilib o‘z fikrlarini ifodalash, so‘rash va javob berish masalalariga kelganimizda men fanlar ichida eng birinchi fan til haqidagi fandir; ikkinchi fan grammatika; uchinchi fan mantiq; to‘rtinchi fan poetikadir, - deb tasdiqlayman”, - degan qarashlariga qo‘shiladi va mutafakkirlarning ona tilini o‘rganish haqidagi g‘oyalariga ergashadi. Fitrat ona tilini o‘rganishning zaruriyatini ko‘rsatish bilan birga, o‘zbek tilining muhim nazariy masalalarini ham ishlab chiqadi. O‘zbek alifbosi, imlosi va tilini tartibga soladi. U o‘zbek tilshunosligi rivojlanishiga, tilimizning leksik va stilistik me‘yorlarini hamda adabiy tilning taraqqiyot yo‘llarini belgilashga, morfologiyasi va sintaksisi qonuniyatlarini aniqlashga katta hissa qo‘shdi.

O‘z davrida savod chiqarishning ancha qiyinligini eski yozuvdagi murakkabliklar tufayli deb bilgan Fitrat, guruhchilar safida alifbo va imloda jiddiy islohotlar o‘tkazdi. Arab alifbosining 151 harf va harf qurilishlarini 33 taga tushirdi, hatto o‘zbek tilining unli tovushlarini arab alifbosida ifoda qilishdek eng murakkab vazifani ham ijobiy hal qildi. Bu alifbo qariyb o‘n yil, lotinlashtirishgacha ishlatilib kelindi.

Fitrat o‘zbek tilini mustaqil til sifatida rivojlanishi uchun kurashib, uni boshqa tillarning tayziqidan himoya qildi. Bu ishlari bilan u Alisher Navoiydan keyin o‘zbek tilining sofliги uchun kurashgan buyuk allomalardan biri bo‘lib qoldi. Olim o‘zbek tilini usmonli turk tilining lahjasi deb qarovchiparga qarshi chiqdi. Turkchilar turk tilining boyligi va “afzalligi”ni maqtab, uni barcha turkiy xalqlar uchun “adabiy umumiy turkiy til”ga aylantirishga urinayotgan edilar. Lekin Fitrat ularga o‘zbek tilining so‘z boyligiga, so‘z yasash imkoniyatlari, grammatik qoidalarining tugalligini

“Muhokama-tul lug‘atayn”, “Lug‘ati Chig‘otayn”, “Lug‘ati Navoiy” kabi milliy xazinalar misolida isbotlab beradi. Shu bilan u boshqa tillarni ham kamsitmaydi. Tatar, usmonli turk, turk tillarini ham alohida mustaqil tillar sifatida rivojlanishini yoqlaydi.

Adib ona tili bilan birga rus va chet tillarni o‘rganishga ham ahamiyat beradi. Keng bilim olish, xorijiy davlatlar fan va madaniyatidan xabardor bo‘lish uchun boshqa tillarni zarur deb biladi.

Fitrat adabiyotni san‘at deb atab fanlar qatoriga kiritmasada adabiyotni, ayniqsa, o‘tmish klassik adabiyotni o‘rganishga katta e‘tibor beradi, ularni chuqur o‘rganishni targ‘ib qiladi.

Mohir pedagog Fitrat yangi maktablarda o‘qituvchilik qilish bilan birga 1917 yili “O‘quv” darsligini, 1919 yili “Imlo masalalari”, “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba Sarf” (1-kitob), 1926 yili “Adabiyot qoidalari”, kabi qo‘lpanmalar nashr ettiradi.

Darslikdagi hikoyalarda ilm bilan birga mehnat ham ulug‘lanadi, o‘qishning o‘zi ham bir mehnat sifatida ko‘rsatiladi. “Pilla urug‘i” va “Tuyg‘un qanday boy bo‘lgan?” hikoyalarida kishining mehnat tufayli hayotda o‘z o‘rnini topishi, obro‘-e‘tibor qozona olishi bolalarga misollar bilan isbotlab beriladi.

Darslikdagi hikoyalarning ko‘pchiligi bolalarga axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga mo‘ljallangan. “Ona sevgisi” hikoyasida ona mehrining hamma narsadan ustunligi, uning oldida hatto yovuz hayvon ham bo‘yin egishi ifodalanadi. Bolasini arslon olib ketgan ona uning ketidan boradi va yig‘lab deydi: “... Sen hayvonlarning hoqonisan, o‘ktamlilik bilan botirlikdan ortikroq yerliging bordir. Mening shu bolamni ema, och bo‘lsang o‘zimni egil. Men undan kattaroq va semizroq erurman”²⁹.

²⁹ Fitrat A. O‘quv. Ibtidoiy maktablarning so‘ngi sinflari uchun. Boku. 1917 22-b

Arslon ayolning bu soʻzlarini eshitib onaning dardini anglab, bolani sogʻ-omon onasiga tashlab ketadi.

“Koʻrilmagan narsaga ishonma” hikoyasida har narsani oʻylamasdan gapiravermaslik lozimligini, yolgʻon mishmishlarga quloq solib keyin uyatga qolish mumkinligini oʻquvchilarga misollar bilan koʻrsatib beradi.

“Sevarning yaramasligi”³⁰ hikoyasida esa oʻzidan kattalarning, ot-onaning gapiga quloq solmaslikning yomon oqibatga olib kelishini, shu bilan birga, turli jonivor va hashoratlarga ziyon etkazishning axloqsizlik ekanligi uqtiriladi.

“Quyosh” hikoyasida astronomiyaga oid bilimlar yoritiladi. “Ot” maqolasi zoologiya ilmini oʻrganishga oid boʻlib, bunda ot turlari, uning yashashi, odamlar uchun foydasi koʻrsatilib, bolalarni ot minishni oʻrganishga, chavandozlikka daʼvat qiladi. “Tarix” nomli maqola tarix ilmiga bagishlangan boʻlib, unda tarix ilmi turlari, uning foydasi gapirib, paygʻambarimiz va xalifalar tarixi, ularning ishlari haqida maʼlumotlar beriladi.

Darslik oxirida bir necha foydali soʻzlar berilgan. Har bir hikoyadan kishi uning mazmunini oid savollar qoʻyilgan. Bu savollar juda oʻrinli tuzilgan boʻlib, bola savolga javob topish orqali mavzuni toʻliq oʻzlashtira oladi.

Fitrat inqilobdan keyin ham turli taʼlim muassasalari tashkil topishida va ularning ishlarida ishtirok etadi. Ular uchun kator qoʻllanmalar yaratadi.

Buxoro xalq sovet jumhuriyati tashkil topgach, 1920 yil sentyabrda maktablar uchun ishchi va dehqonlardan oʻqituvchilar tayyorlash maqsadida eski Buxoroda “Shamsulmaorif” kursi tashkil etiladi. Bu kursda oʻqish,

³⁰ Fitrat A. Oʻquv. Ibtidoiy maktablarning soʻngi sinflari uchun. Boku. 1917 13-b

yozishni bilgan mahalliy ziyolilardan 70 kishi o'qiydi. 1921 yili Buxoro viloyatlarida 12 ta shunday kurs tashkil etilib, ularda 472 kishi o'qiydi.

1924 yili Buxoro Xalq Jumhuriyatida 41 ta birinchi bosqich maktabi, viloyatlarda 44 ta namunali tuman maktabi, 2 ta hunar maktabi, xotin-qizlar uchun 3 ta maktab, 124 ta savodsizlikni tugatish kursi bo'lib bularda 6000 kishi o'qiydi.

Fitrat Buxoroning ko'zga ko'ringan rahbarlaridan biri va Xalq Maorifi Noziri sifatida shu ta'lim muassasalari ishini tashkil etish va boshqarishda jonbozlik ko'rsatadi. Ular uchun darslik, o'quv qurollari etkazib berishga harakat qiladi.

Fitrat darslik va qo'llanmalar yaratish faoliyatini davom ettirib o'z davridagi muhim vazifalardan biri - o'zbek adabiy tilining nazariy masalalarini, til qoidalarini ishlab chiqishga kirishadi.

“Sarf” da morfologiya - so'z turkumlari, so'zning shakllar tizimi, shu shakllarning hosil bo'lish yo'llari haqida fikrlar bildiriladi. O'zbek tili fonetikasi, o'zbek tilidagi unli va uvdosh tovushlar haqida ham muhim ma'lumotlar beriladi.

Fitratning yana bir “Adabiyot qoidolari” qo'llanmasini Oybek o'z davrida “maktab o'quvchilari uchun go'zal qo'llanma” deb baholaydi va shunday yozadi: “bu kitob hozirgi adabiy hayotimizning sust davrida muhim bir narsadir. Adabiyot darsliklariga ehtiyoji zo'r bo'lgan maktablarimizda har holda bir muncha yordam ko'rsatdi”³¹.

Qo'llanmada ko'plab yangi shoirlar va Navoiy, Bobur, Lutfiy kabilarning she'rlaridan parchalar, misollar keltirilib, adabiyot qoidolari tahlil qilib beriladi.

Fitrat adabiyotga shunday ta'rif beradi: “adabiyot - fikr

³¹Oybek. Adabiyot qoidolari.-T: Fan 1985. 40-b

tuyg'ularimizdagi to'liqunli so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu tuyg'ularni yaratmoqdir.

Qo'llanmada she'rga, barmoq va aruz vaznlariga ta'rif beradi, yozish qoidalarini o'rgatadi. Xalq og'zaki adabiyoti, uning turlari haqida ma'lumotlar beradi.

Fitrat adabiyot tarixi fani rivojiga ham ulkan hissa qo'shadi. U o'zining "O'zbek adabiyoti namunalari"da adabiyot tarixini davrlarga bo'lishni birinchi bo'lib ishlab chiqadi va quyidagicha davr taqsimotini tavsiya etadi: 1. "Qabilaviy adabiyot namunalari". 2. "Feodallik davri adabiyoti". 3. "Savdo sarmoyasi davri o'zbek adabiyoti".

Adib bu qo'llanmasida har bir adabiy davrga xos asarlardan namuna beribgina qolmay, shu bilan birga bu davrning xususiyatlari, madaniy hayotini ham tahlil qiladi.

Fitratning yana bir majmua qo'llanmasi "Eng eski turk adabiyoti namunalari" bo'lib, u Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asari asosida yozilgan. Kitob uch qismdan iborat. Birinchi qismda "Alp Er to'nga marsiyasi", "Yoz, qish manzarasi" kabi tasviriy asarlar berilgan. Ikkinchi qismda "Devoni lug'oti turk"dan saylanib olingan ta'limiy-axlokiy asarlar aks etgan. Uchinchi qism esa yuqorida berilganlarning sharhiga bag'ishlangan va bunda tushunilish qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati va ayrim so'zlarga grammatik tavsif berilgan. Fitrat devon matnlarini isloh qilingan arab yozuviga ko'chirgan, parchalar ostiga o'zbekcha sharhini yozgan. Adib o'zining bu tadqiqoti bilan Mahmud Kashg'oriy devonining keyingi to'liq nashrini yaratilishiga yordam bergan.

XULOSA

Fitrat shoir, dramaturg, musiqashunos, atoqli davlat, siyosat arbobi bo'lishi bilan birga, yirik tilshunos va adabiyotshunos olim, Turkiston xalq ta'limi taraqqiyotiga muxim hissa qo'shgan buyuk ma'rifatparvar va barkamol inson shaxsini tarbiyalash uchun kurashgan mohir pedagog hamdir.

Fitratning ma'rifiy qarashlari o'zbek va tojik xalqlarining tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan, Markaziy Osiyoning mashhur olim va mutafakkirlari, islom dinining kudratli ta'limoti, shuningdek XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlar, jadidizm mafkurasini hamda jadid ma'rifatchiligi g'oyalarining ta'sirida shakllandi. Xalqi va millatining porloq kelajagi, vatanining ozod va mustakilligi uchun kurash Fitrat hayoti mazmunining asosini tashkil etdi. U millatparvarlik va vatanparvarlik haqidagi qadriyatlarga tayanib, o'zining shunga oid ta'limotini yaratdiki, bu hozirgi kunimizda vatanparvarlik mafkurasini yaratish va yoshlarni vatanni, millatni sevishga o'rgatishda muhim yo'llanma bo'la oladi. Vatan, vatanparvarlik va insonparvarlikni eng yuksak axloqiy hislatlar deb bilib, uni juda qadrladi Vatanni "sajdagoh" deb atab, kishilarni uni sevishga, asrashga, unga sidqidildan xizmat qilishga chaqirdi.

Fitrat o'zining ma'rifatparvarlik faoliyatida o'lkada maorif va madaniyatni rivojlantirish, xalqni ma'rifatli qilish orqali mamlakatni yuksaltirish uchun harakat qildi. U yangi usul maktablar ochish, chet ellarga talabalar yuborib, malakali mutaxassislar tayyorlash ishiga rahbarlik qildi. Adib turli o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilib, ko'plab olim va pedagoglar tayyorladi. Qator darslik va o'quv qo'llanmalar yaratib, O'zbekiston maorifi rivojiga katga hissa ko'shdi. Olimning boshlang'ich sinflar uchun yozgan "O'quv" darsligi tilning sodda va ravonligi, bolaning yosh xususiyatlarni

xisobga olinganligi, kundalik hayotiy voqealar aks ettirilganligi, undagi barcha hikoya va matnlarning ta'lim va tarbiyaviy xarakterda ekanligi ularning barchasi adib tomonidan yaratilganligi bilan xarakterli.

Fitrat o'zbsk tilining mustaqilliga va sofliги uchun kurashib, uning yuksalishiga katta qissa qo'shdi. Murakkab arab yozuvini isloh qildi, lotin grafikasidagi o'zbek yozuvini yaratishda qatnashdi. U dastlabkilardan bo'lib "O'zbek tili qoidolari go'g'risida bir tajriba: "Sarf" va "Nahv" qo'llanmalari va boshqa risolalarida o'zbek tilida fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi qoidalarini ishlab chiqdiki.

O'zbek adabiyotshunosligi rivojida Fitratning o'rni benihoya kattadir. U o'zining "O'zbek adabiyoti namunlari", "Eng eski tur adabiyoti namunlari", "Aruz haqida" va boshqa ko'plab risolalarida adabiyot nazariyasi va tarixining muhim masalalarini ishlab chiqdi. O'tmish ilmiy va adabiy merosimizni o'rganish va uni keyingi avlodlarga etkazish uchun kurashdi. Olimning adabiyotshunoslik, musiqa nazariyasiga oid merosi va badiiy-ilmiy asarlari qimmatli manbalardan bo'lib hisoblanadi.

Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardan biri uning islom dini g'oyalarini har taraflama chuqur o'rganib, tahlil etib, ulardan komil insonni imon e'tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ'ib qilganligidir.

Fitrat o'z tarbiya nazariyasida inson kamoloti uchun zarur bo'lgan va shaxs hayot mazmunini tashxil kiluvchi ma'naviy, oilaviy, insoniy majburiyatlarni belgilab, shu majburiyatlarni amalga oshirilishi jarayonida komil inson shakllanadi, deb hisobladi. Olimning fikricha, kishi millat manfaati uchun xizmat qilsa, boshqalarga yaxshilik qilib, o'zi yaxshi ko'rgan narsaning bir qismini muhtojlarga beradigan bo'lsa u saodatga etishadi. Uning goyasiga ko'ra inson kachonki boshqalar uchun foyda keltira olsa, o'shandagina uning qalbi kamolga etadi.

Fitrat har tomonlama etuk, barkamol kishi tarbiyalashda jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyani birgalikda uzviy bogliq holda olib borishning ahamiyati, ularning mazmuni, amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib o'tadi. Uning bu tarbiyalarga oid nazariyalari, jumladan jismoniy tarbiya mazmuniga oid qarashlari hozirgi kunimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkirlar va jadidlar kabi Fitrat ham inson kamolotga etishishida ilm-fan, bilim o'rganishning, ya'ni aqliy tarbiyaning ahamiyatini juda katta deb biladi. Ilm egallash, bilim o'rganishning zarurligini din talablari bilan ham asoslab beradi. Ta'lim qoidalari va metoddari haqida juda muhim va asosli fikrlarni bildiradi. Maktabda til ta'limi ona tili va xorijiy tillarni, aniq fanlar va tabiiy ilmlarning o'qitilishiga alohida ahamiyat beradi. O'zi yaratgan fanlar tasnifida barcha fanlarning, jumladan ijtimoiy fanlarning ham insonlar va jamiyat uchun ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Fitrat barkamol inson tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'rnini juda muhim deb biladi. Uning fikricha axloqiy tarbiyaning vazifasi isonni axloqiy barkamol bashariyatga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni - asosiy axloqiy sifatlar biladi. Adibning asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik,- ozodlik, maqsad sari intilish, vijidoli, adolatli, bo'lish, sevgi-muhabbat g'oyalari ulug'lanadi.

Mohir pedagog Fitrat oila tarbiyasi va jamiyatda ayolni o'rni masalasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Bola tarbiyasida onaning oilaning o'rni juda muhimligini ko'rsatadi. Shu bilan birga tarbiyada oila, maktab, jamoatchilik hamkorligining zarurligini asoslaydi.

Abdurauf Fitratnint ma'rifiy g'oyalari O'zbekistonning ilm-fani, madaniyati va milliy ta'lim-tarbiya tizimi rivojlanishida dasturilamal bo'lib xizmat qilishi shak-shubxasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Raxbariy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Buyuk maqsad yulidan ogashmaylik.-T.:O‘zbekiston, 1993.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat.-T.: O‘zbekiston, 1994.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 1994.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O‘zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: O‘zbekiston, 1996.
- 6.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T. 2. - T.: O‘zbekiston, 1996.
- 7.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T. 5. - T.: O‘zbekiston 1997.
- 8.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. - T.: O‘zbekiston, 1998.
- 9.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. - T.: O‘zbekiston, 1999.
- 10.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz T. 8. - T.: O‘zbekiston. 2000
- 11.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T. 9. -T.: O‘zbekiston, 2001.
- 12.Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10.-T.: O‘zbekiston, 2002.
- 13.Karimov I. A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari // Xalq so‘zi. 2002. 30 avgust.
- 14.Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy

istiqbolining asosiy tamoyillari.-T.:O‘zbekiston, 1995.

15.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.:O‘zbekiston. 1999.

16.Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida // O‘zbekiston ovozi. 2001. 6 dekabr.

17.Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq yettinchi sessiyasidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2001. 7 dekabr.

18.Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. -T.: O‘zbekiston. 2004.

19.Karimov I.A.O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13 -T: O‘zbekiston. 2005.

20.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston. 2005.

21.Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.T. 14. T.: O‘zbekiston. 2006.

22.Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15.- T: O‘zbekiston. 2007.

23.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T.16. - T.: O‘zbekiston, 2008.

24.Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. // Vatanparvar, 2008 y. 12 dekabr.

25.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza. // Xalq so'zi. 2009 y. 14 fevral.

26.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston. 2009.

27.Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu ikboli va buyuk kelajagi yulida hizmat qilish- eng oliy saodatdir T.: O'zbekiston. 2015.

28.Karimov I.A «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» -T: 2008.

29.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston", 2017.

30. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi. "Halq bilan muloqat va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T: 2017

Maxsus adabiyotlar

1.Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., 1997.

2. Abdullaev R. Milliy siyosiy g'oyalar tarixidan –T: 1991.

3. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida.-T.: O'qituvchi, 1972.

4.Adabiy zamondoshlarimiz. Davra suhbatlari // O'zbekiston adabiyoti san'ati.-1989.-26 may.

5. Ashurov S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar.-T.: Adabiynashr, 1952.

6. Boltaboev H. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi.-T.: Fan, 1992.

7. Boltaboev H. XX asr boshlarida o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi: Fil. fan. doktorliga dissertatsiyasi.-T., 1996.
8. Karimov E. Fitrat hayoti va ijodi haqida // O'zbek tili va adabiyoti.- 1990.- № 3
9. Turdiev SH. Fitrat jahon kezadi //Fan va turmush.-1991.№ 2
10. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T.: O'qituvchi, 1995.
11. Fitrat A. Insoniyat haqida Navoiyning fikri. //Sirli olam. 1992. - № 12.
12. Fitrat A. Islom tarixi //Sirli olam. - 1992. - № 3-4.
13. Fitrat A. Ittifoq etaylik //Xurriyat. - 1917. - 25 iyul.
14. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - T.:Fan, 1983.
15. Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. //SHarq yulduzi.-1991. №8 B.
16. Cho'lpon Abdulhamid Sulaymon. Istiqlol uchun kurash. Sovet O'zbekistoni.-T: 1990. 98-b
17. Tursunov I. istiqlolga intilgan qalblar nidosi. –T: O'qituvchi. 1993. 48-b
18. Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. Bugungi tuk eli.Turkiston va yangi tarixi. Istanbul. 1981. 351-b
19. Fitrat. A Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning bir necha masalalari ham usuli jadidi xususida qilg'on munozarasi.-T: Turkiston kutubxonasi. 1913. 134-b
20. Fitrat. A Hind sayyohining qissasi. // Sharq yulduzi. 1991. №8 39-b
21. Karimov E. Fitrat tug'ma iste'dod degani // Buxoro xaqiqati. 1990 24-fevral
22. Xo'jayev F. Buxorodagi revolutsiya va O'zbekistonning milliy chegaralanishiga doir // Tanlangan asarlar. 3 tom.-T: 1976. 98-b
23. Qosimov B. Abdurauf Fitrat xalq farzandi.// Saodat.1998/ №5 15-b
- Aliyev A. Sening nurli ko'zlaringda baxt o'qidim.// O'zbekiston ovozi. 1992 yil 9-yanvar

24. Fitrat A. Raxbari najot. Petrograd. 1915. 204-b
25. Fitrat A. Yopishmagan gajaklar. // Qizil O'zbekiston. 1921 yil 16-sentyabr
26. Fitrat A. Insoniyat xaqida Navoiyning fikri.// Sirli olam. 1992 yil. № 12
27. Yo'ldashev N. Abdurauf Fitratning "Raxbari najot" asaridan muxtasar fasllar. Buxoro. 1996. 11-b
28. Fitrat A. Turkistonda ruslar.// Sharq yulduzi. 1992 yil №4 38-b
29. Oybek. Adabiyot qoidolari.-T: Fan 1985. 40-b

Internet saytlari

1. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www. edu.uz](http://www.edu.uz) www.
3. [www. mahalla.Uz](http://www.mahalla.Uz)
4. [www. LexUz](http://www.LexUz)
5. [www. Kitob.Uz](http://www.Kitob.Uz)